

GANIYEVA F.V.

**BASKETBOLCHILARNI
TAYYORLASH JARAYONINI
REJALASHTIRISH VA TURLI
TAYYORGARLIK SIKLLARIDA
MASHG'ULOTLAR O'TKAZISH
XUSUSIYATLARI**



796.323.2(075.8)

617

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI

GANIYEVA FATIMA VAXABOVNA

**BASKETBOLCHILARNI TAYYORLASH
JARAYONINI REJALASHTIRISH VA TURLI
TAYYORGARLIK SIKLLARIDA MASHG'ULOTLAR
O'TKAZISH XUSUSIYATLARI**


O'QUV QO'LLANMA

Bilim sohasi: 1000 000 – Xizmatlar

Ta'lim sohasi: 1010 000 – Xizmatlar ko'rsatish

Ta'lim yo'nalishi: 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)

TOSHKENT
"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMU-2025



UO‘K 796.323.2

KBK 75.566

G 74

Ganiyeva F.V. **Basketbolchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish va turli tayyorgarlik sikllarida mashg‘ulotlar o‘tkazish xususiyatlari:** [O‘quv o‘llanma] / – T.: **“O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI”** NMIU, 2025. – 204 b..

Muallif:

Ganiyeva F.V – “Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati” kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

Miradilov B.M - O‘zbekiston basketbol federatsiyasi bosh kotibi p.f.b.f.d (PhD) professori

Pavlov Sh.K - “Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati kafedrası” professori

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalari, sport maktablari, ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan turli toifaga mansub o‘qituvchi - trenerlar, magistrantlar va mazkur soha doirasida xizmat qiluvchi mutaxassis kadrlarga mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmada sport o‘qituvchi - trenerining serqirra va ko‘p funksional kasbiy-pedagogik faoliyati ochib berilgan. Jumladan, sportchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish vazifalari, maqsadlari, me‘yorlash mezonlari, siklliligi, davriyligi, bosqichlari, trenerlik kasbining mohiyati va mazmuni hamda boshqa qobiliyatlari keng yoritib berilgan.

Talabalar bilim va malakalarini mustaxkamlash uchun savollar va test topshiriqlari o‘z aksini topgan.

UO‘K 796.323.2

KBK 75.566

ISBN: 978-9910-690-47-1

© “O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU. 2025

© Ganiyeva F.V. 2025

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetiga ega bo'lishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'z yo'lini tanlashi, fuqarolik jamiyatini barpo etish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar jamiyat hayotining turli sohalariga, shu jumladan sport, ta'lim va tarbiya sohalariga tubdan yangi yondashuvlarni taqozo etadi.

Zamonaviy basketbol ayni davrda nafaqat dunyo miqyosida, balki O'zbekistonda ham eng ommalashgan sport turlari tarkibiga kiradi. Ushbu sport turi o'z mohiyati va o'yin mazmuni jihatlaridan oddiy hamda ommabob bo'lgani sababli u barcha yoshdagi aholini, ayniqsa o'quvchi-yoshlarning kundalik ehtiyojiga aylanib bormoqda.

Albatta, jismoniy tarbiya yoki birorta sport turi bilan mustaqil tartibda shug'ullanish mumkin. Lekin, har bir sport turiga mos jismoniy va texnik-taktik mashqning o'ziga xos xususiyatlari bo'lganidek, basketbolda ijro etiladigan harakatlar, jismoniy va texnik-taktik mashqlarni ham o'zlashtirish bilan bog'liq qonun-qoidalari, me'yor-mezonlari mavjuddir. Bunday tartib-qoidalar va me'yor-mezonlarni bilgan holatdagina sport bilan shug'ullanish koni foydadan holi bo'lmaydi. Shunday ekan basketbol bilan ommaviy yoki ommaviy basketboldan professional basketbolga o'tish, unda yuksak natijalarga olib chiquvchi mashq va mashg'ulotlar etuk kasbiy bilim, shakllangan amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugun O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev erishilgan haqiqatlar doirasini davom ettirib, kengaytirib, mahalliy va xorijiy mutaxassislarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari tizimini o'zgartirish va takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabidagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-sonli va 2024-yil 19-iyulda qabul qilingan "Волейбол спорт турларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-274-сонли Қарорлари.

Uning tashabbusi tufayli Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, Jahon va Osiyo chempionatlarida, shuningdek, boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan sportchilar va murabbiylarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish tizimi butunlay yangicha yo'l bilan o'zgartirilib, ularga tegishli imtiyozlar berildi. Uning ilmiy - pedagogik va trener kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan sa'y harakatlari alohida e'tibor va g'ayratga loyiqdir.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport yuksalishida, sportda o'zib ketayotgan yosh avlodni keng jalb qilishda jismoniy tarbiya va sport va jismoniy tarbiya taraqqiyotini ta'minlaydigan bir necha Qonun, Farmon va qarorlar qabul qilinib, hayotda izchil tadbqiq etilayotgani g'oyat muhimdir.

Ommaviy sport harakatini rivojlantirish bilan bir qatorda, hozirgi kunda respublikada faoliyat ko'rsatuvchi sport turlari bo'yicha etishib chiqayotgan va mamlakat terma jamolarida faoliyat ko'rsatayotgan iqqidorli sportchilardan Olimpiya va Osiyo o'yinlari hamda jahon chempionati va birinchiliklari musobaqalarida yuqori natijalarni ko'rsata oladigan mahoratli sportchilarni tayyorlash, ularning sport mahorati ko'rsatkichlarini jahon talablari darajasiga etkazish borasida tayyorlashga uzviy bog'liq bo'lgan yuqori malakali sport mutaxassislar bilan ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda.

Ko'pgina sport turlarida sportchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish avvalo musobaqa faoliyati ahamiyatini oshirish va bunga bog'liq ravishda mashg'ulotlar ta'sirini musobaqa amaliyoti talablariga muvofiq yanada puxta individuallashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar vujudga keladi. Bu tendentsiyalar jamoviy sport turlarida aniq namoyon bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, basketbolchilar tayyorgarligining ko'p omilli tuzilishi o'quv-mashg'ulot jarayonini boshqarishning o'ta murakkabligida bo'ladi. Mashg'ulot va musobaqa jarayonini boshqarish masalalarini echish pedagog-murabbiyning, hamda

basketbolchilarni uzoq muddatli tayyorgarligini ilmiy-uslubiy ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining "Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati kafedrası dotsenti F.V.Ganiyeva tomonidan "Basketbolchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish va turli tayyorgarlik sikllarida mashg'ulotlar o'tkazish xususiyatlari" deb nomlangan mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining o'quv rejasi, 61010300 – sport faoliyati (basketbol) o'quv dasturi talablari asosida tayyorlangan bo'lib, unda muqaddam nashrdan chiqarilgan muvofiq o'quv qo'llanma mazmunidan farq qiluvchi bir qator yangi mavzu va mashg'ulotlar joylashgan, jumladan, ushbu o'quv qo'llanmaga "Basketbolchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish va turli tayyorgarlik sikllarida mashg'ulotlar o'tkazish xususiyatlari" mavzusining maqsadlari, vazifalari va mazmuni, "Ko'p yillik sport trenirovkasi jarayonining siklliligi, davriyligi va bosqichlari" hamda "Yuqori razryadli basketbolchilar bilan mashg'ulot o'tkazish uslubiyati" ga doir materiallar zamonaviy yondashuv asosida ochib berilgan.

Ushbu qo'llanmada o'z o'qituvchi-murabbiylik tajribasi va sportchilarni tayyorlashning xalqaro amaliyotini o'rganish asosida, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini nazariy jihatdan asoslashga harakat qilingan tatayyorlashning turli jihatlari kuzatilgan.

Basketbol bo'yicha tayyorlangan "Basketbolchilarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish va turli tayyorgarlik sikllarida mashg'ulotlar o'tkazish xususiyatlari" – deb nomlangan mazkur o'quv qo'llanma o'z mohiyati hamda mazmuni jihatidan jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan barcha oliy o'quv muassasalari o'qituvch-trenerlari, jismoniy tarbiya va sport sohasi ixtisosligi va mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim oluvchi bakalavr, magistr talabalari foydalanishi uchun tavsiya etiladi, balki shu soha o'qituvchi-murabbiylari va mutaxassis tashkilotchilariga ham dastur, ham amaliy qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

I BOB. O'ZBEKISTONDA BASKETBOL TARAQQIYOTINI REJALASHTIRISH VA BOSHQARUVCHI DAVLAT HAMDA JAMOAT ORGANLARI

Sport taraqqiyotini boshqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Milliy genafondini shakllantirish va sog'lom – barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lish jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida rivoj topib bormoqda.

Mamlakatimizda mustaqil hamdo'stlik davlatlari ichida birinchi bo'lib (1992 yil) "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun, futbol, kurash, tennis va boshqa sport turlarini yanada rivojlantirish, "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida" Prezident farmoni va sohani tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy ettirish bo'yicha ko'plab qabul qilingan konseptual qarorlar hamda izchillik bilan amalga oshirayotgan islohatlar yuqoridagi fikrning fundamental dalilidir.

Respublikamizning barcha xududlarida, hatto uzoq qishloq joylarida minglab xalqaro standartlarga mos sport inshootlarining barpo etilishi va ularni zamonaviy texnik uskunalar, anjomlar bilan jihozlanishi, ayniqsa 2000 yildan boshlab Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga hamohang bo'lgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi ko'p bosqichli ommaviy musobaqalarnig joriy etilishi va uzluksiz o'tkazishi nafaqat sport bilan shug'ullanuvchilar doirasini kengaytirib bormoqda, balki ushbu islohtlar kechagi yosh sportchilarimizni bugungi kunda eng nufuzli xalqaro musobaqalar (Olimpiya o'yinlari, jahon va osiyo musobaqalari) shoxsupasidan joy olishga imkon yaratmoqda.

G'urur va tashakkur bilan ta'kidlash joizki, Ozod va obod Vatan kurashga va farovon hayot barpo etishga qodir, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, jismoniy va intellektual jihatdan yuksak ma'naviyatli

avlodni tarbiyalashga qaratilgan ana shunday savobli islohtlarni hayotga joriy etish shularga davlat va jamoat rahbarlari, mutasaddi hodimlar, mutaxassislar va xomiylarni jalb qilinishi yurtboshimizning buyuk insoniy va yo'lboshchilik xislatlarini ochib beradi.

Uning "Sog'lom avlodni tarbiyalash barchaning, butun jamiyatning, shu yurtda yashaydigan har bir insonning asosiy ishi, insoniy burchidir" – deb ilgari surgan strategik g'oyasi el-yurtimiz va xalqimiz hayotida o'z ifodasini topib kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish mas'ulyatini o'ziga olgan barcha davlat va jamoat organlari ushbu g'oyani o'ziga qurol qilib olgani isbot talab qilmaydi.

1.1. Boshqaruv jarayoni haqida tushuncha

Ko'p yillik tayyorgarlik sikllari va ularda olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirish mutaxassis-murabbiydan yoki jismoniy tarbiya o'qituvchisidan chuqur va chuqur va serqirrali bilimga ega bo'lishi zarur bo'lsa, ushbu jarayonlarni samarali boshqarish uchun unda ko'p yo'nalishli kasbiy-pedagogik mahorat, amaliy ko'nikma va malakalar shakllangan bo'lishi talab qilinadi.

Sportchilar tayyorlash jarayonini boshqarishning strategik maqsadi – ko'p yillik sport trenirovkasi davomida shu sportchilarni ma'naviy-madaniy, ruhiy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning jismoniy, texnik-taktik va psixofunksional imkoniyatlarini tanlangan sport turi talablariga muvofiq shakllantirishga qaratiladi.

"Boshqaruv" tushunchasi sub'ekt (murabbiy) ob'ektga (sportchilar) nisbatan muayyan mashqlarni qo'llash asosida ta'sir etib, rejalashtirilgan maqsadga erishish ma'nosini anglatadi.

Ko'p yillik sport trenirovkasi jarayonida yuqori malakali basketbolchilar va basketbol jamoasini tayyorlash uzoq muddatli

pedagogik jarayon bo'lib, uni murabbiy boshqaradi. Sportchilar tayyorlash jarayoniga murakkab dinamik tizim sifatida qaralib, uni boshqaruvchi sub'ekt pedagog-murabbiy, boshqariluvchi ob'ekt esa sportchilar, jamoa yoki o'quv guruhlar bo'lib hisoblanadi.

Sport tayyorgarligi tizimining murakkabligi shundan iboratki, u katta qismdagi bir-biri bilan bog'langan va bir-biri bilan o'zaro harakat qiladigan jarayolardan (texnik, taktik, psixologik va boshqa) iborat.

Sport tayyorgarligi natijasida sportchilarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kuzatiladi. Sport tayyorgarligini boshqarishning asosiy farq qiladigan xususiyati shundan iboratki, bunda murakkab, o'z-o'zini boshqaruvchi odam ob'ekti yotadi. Bu murabbiyga sportchining o'zini boshqarish qobiliyatini har xil yo'l bilan rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Sport tayyorgarligining samarasi sportchi to'g'ridan-to'g'ri o'zini boshqarish va o'zini mukammallashtirish qobiliyatiga bog'liq.

Murabbiy-sportchi-jamoa- murabbiy o'zaro uzviy tizimi doirasida olinadigan axborot-ma'lumotlar maqsadli boshqaruvga asos bo'lishi darkor.

Boshqaruvning asosiy vazifalari – mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil qilish, nazorat qilish va qiyosiy tahlil qilish bilan ifodalanadi. Bularning hammasi boshqaruvning davriyligini va to'xtovsizligini ta'minlovchi yopiq holqa hosil qilib, bir-biri bilan o'zaro harakat qiladi.

Boshqaruv jarayoni bir mashg'ulot davomida yoki bir hafta davomida, bosqichlarda bo'lsada yillik tayyorgarlik sikllari bo'ylab davom etadi.

Tayyorgarlikning asosiy shakllari. Basketbolchilar tayyorlashning asosiy shakllari sport mashg'ulotlari va musobaqalarda ishtirok etish jarayonlaridan iborat. Ular bir-biri bilan bog'langan, lekin shu bilan birgalikda boshqaruvning asosiy vazifalari mazmunini aniqlovchi o'ziga xos xususiyatlarga ega.


Shu sababli tayyorgarlikni boshqarish 2 bo'limga bo'linadi:

1. Mashg'ulot jarayoni va musobaqa tayyorgarlik ko'rishni boshqarish.
2. Musobaqa jarayonida jamoani boshqarish.

1.2. Basketbol taraqqiyotini boshqaruvchi organlar

Respublikamizda basketbol taraqqiyotini boshqarish funksiyasini davlat va jamoat organlari bajaradi. Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi boshqaruv organlar – bu nodavlat - Milliy olimpiya qo'mitasi va O'zbekiston basketbol federatsiyasi; Davlat – Sport vazirligi (1-jadval);

1-jadval



O'zbekiston basketbol taraqqiyotini boshqarish sport zaxiralarini va yuqori malakali sportchilarni etishtirish jarayonini boshqarish mas'uliyatini O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi va uning Sport o'yinlari boshqarmasiga yuklatiladi.

Bunday boshqarma va bo'limlar har bir tuman, shahar va viloyatlarda mavjud bo'lib, ular joylarda basketbol taraqqiyotini ta'minlashga javobgardirlar.

Basketbolni taraqqiy ettirish, uni yanada ommaviylashtirishda Respublika, viloyat, shahar va tuman kasaba uyushmalarining "Ko'ngilli jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari " ham katta ish olib boradi.

Basketbol o'quv fani sifatida Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari hamda umumiy ta'lim maktablarining o'quv dasturlaridan joy olgan.

Respublikamizning milliy terma jamoalari murabbiylari nafaqat yuqori malakali basketbolchilarni tayyorlash, balki basketbol bo'yicha iste'dodli o'rinbosarlarni etishtirish ishlariga ham rahbarlik qiladi, ularga nazariy va uslubiy yordam ko'rsatib beradi.

Respublikamizning barcha turdagi ta'lim muassasalarida basketbol eng ommaviy sport turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qishloqlarda, xo'jalik jamoalarida, mahallalarda, maktab va o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan ko'pdan-ko'p basketbol to'garaklarida mazkur sport turi bilan shug'ullanayotganlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, basketbolchilar mahoratini oshirish va malakali basketbolchilarni etishtirish maktab o'quvchilarni mazkur o'yin sirlariga maqsadga muvofiq rejaga asosan ommaviy o'rgatish bilan bog'liqdir. Maktab o'quvchilarni o'z mahoratlarini maxsus Sport maktablarda, Olimpiya o'rinbosarlari tayyorlash sport maktablarida yanada "chuqquroq" va kengroq takomillashtirishlari mumkin.

Sport maktabi va shunga o'xshash maxsus sport maktablari o'z faoliyatlarini asosiy dastur va rejalashtiruv hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunga asosan amalga oshiriladilar.

Mahallalar, turar joylar, yotoqxonalar, dam olish uylari, oromgohlari, dala shiypohlari va sog'lomlashtirish maskanlarida basketbol to'garaklarini tashkil qilish va mazkur sport turi bilan muntazam shug'ullanish nafaqat barcha yoshdagi aholini jismonan takomillashtirishga yordam beradi, balki ularni salomatligini mustahkamlaydi, bolalarni nojo'ya ishlarga aralashuvlaridan qaytaradi.

Oliy o'quv yurtlarida, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari va harbiy qismlarda ham basketbol o'yini nihoyatda katta ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida basketbol, birinchidan o'quv dasturiga binoan mashg'ulot sifatida joriy etilgan bo'lsa, ikkinchidan, shu o'quv yurtlarining sport to'garaklarida mashg'ulotlar olib boriladi.

1.3. Basketbol taraqqiyotini boshqaruvchi jamoat organlari **O'zbekiston basketbol Federatsiyasi va uning ish faoliyati**

Mamlakatimizda basketbolni ommaviylashtirish, rivojlantirish, uning istiqbolni ta'minlash O'zbekiston basketbol Federatsiyasiga yuklatiladi.

Federatsiyaning oliy rahbar organi respublika anjumanidir. U mamlakatda basketbolni rivojlantirishning asosiy masalalarini hal qiladi. Federatsiya anjumanda saylangan o'z prezidiumidan (rayosatidan) iborat.

Rayosat o'z navbatida belgilangan ijroiya qo'mitasiga ega bo'lishi kerak. Qo'mita federatsiyaning raisi rahbarligida direktorat va doimiy hay'atlar tuziladi.

Bu hay'atlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat ko'rsatadilar:

- moliyaviy-iqtisodiy;
- yuridik-huquqiy;
- moddiy-texnika ta'minlovi;
- ommaviy-tashkiliy;

- trenerlar kengashi;
- hakamlar uyushmasi;
- ilmiy-uslubiy;
- tibbiy;
- sport texnika;
- bolalar va o'smirlar sporti;
- xalqaro sport aloqalari;
- sport fahriylari kengashi;

Ko'rinib turibdiki, mazkur yo'nalishlari nomlarining o'zi hay'atining vazifasi bajaradigan tadbirlari va butun faoliyat mazmunini belgilab berib turibdi.

Jahonda basketbolni rivojlantirish jarayoni xalqaro tashkilotlar darajasida boshqariladi.

Basketbol taraqqiyotini boshqarish Xalqaro Basketbol Federasiyasi (XBF-FIBA) va zonal konferensiyalar orqali ijro etiladi.

FIBAning aloqa va ish faoliyatlari rasmiy ravishda ingliz, fransuz, rus va ispan tillarida amalga oshiriladi.

FIBA o'zining ustaviga ega, U vaqti-vaqti bilan basketbol sohasida ro'y berayotgan asosiy voqealar bilan yortilgan rasmiy Axboratnoma chiqarib (nashr qilib) turadi, turli uslubiy ko'rsatmalar, hujjatlar, nizomlar, tavsiyanomalar chop etiladi.

FIBAning asosiy maqsadi – jahonning turli mintaqalarida basketbolni rivojlantirish, barcha davlatlarning sportchilarning sportchilari va rasmiy shaxslari o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash, milliy basketbol federasiyalarini birlashtirish, yangi milliy basketbol federasiyalari tuzish, rasmiy musobaqalar o'tkazish, o'yin qoidalarini va taktikasini shakllantirishdan iborat.

FIBAning oliy organi – Kongressdir. U ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

FIBAning rahbar organi – Ma'muriy Kengash bo'lib, o'z Prezidenti, bosh kotib va yordamchilari, 4 ta vise-prezidenti, 12 ta

Kengash a'zolari va zonal konfederasiyalarning prezidentlaridan tashkil topadi.

Ma'muriy kengashning qarorlarini Ijroiyy Qo'mita hayotga tadbiiq etadi. Ijroiyy Qo'mita prezidentidan, ikki Vise-prezidentidan, bosh kotibi va uni ikki yordamchisidan iborat.

FIBAda texnik organlar ham mavjud bo'lib, ular 5 ta doimiy hay'atlardan tashkil topadi.

1. Tashkiliy-sport hay'ati – musobaqalarni tashkil qilish va ularni tahlil etish, ma'lumotlarni yig'ish va basketbol bo'yicha xalqaro sport kalendarini rejalashtirish;

2. Trenerlar bo'yicha hay'at – basketbol endigina rivojlanayotgan mintaqa va davlatlarda shu sport turini taraqqiy ettirish tadbirlarini tashkil qilish, trenerlar bilan seminarlar uyushtirish, ularga maslahatlar berish, basketbol bo'yicha "qo'li kalta" davlatlarga yordam sifatida trenerlarni har xil muddatlarga ishga jo'natish, uslubiy ko'rsatma va tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ishlari bilan shug'ullanadi.

3. Arbitraj hay'ati – musobaqalar hakamlarini tayinlash, ularning faoliyatiga rahbarlik qilish, tahlil etish va baholash, xalqaro seminarlarni uyushtirish, hakamlik qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish ishlarini bajaradi.

4. O'yin qoidalari bo'yicha hay'at – Ma'muriy Kengash va Kongress muhokamasiga o'yin qoidalari bo'yicha kiritilgan o'zgarishlar oid tavsiyalarni taqdim etish, arbitraj hay'ati bilan birgalikda hakamlik qilish qoidasini ishlab chiqish va o'yin qoidalariga yagona fikrda yondoshishni ta'minlash kabi tadbirlarni amalga oshiradi.

5. Tibbiy hay'at – musobaqalar jarayonida tibbiy xizmat ko'rsatish, o'quv-trenirovka mashg'ulotlarini tibbiy nazorat qilish, organizm va ish qobiliyatini tiklashga oid tadbir vositalar hamda

shikastlanishlarni oldini olish kabi masalalar bo'yicha taklif, tavsiya va ko'rsatmalar tayyorlash ishlarini ijro etadi.

FIBA o'z tarkibiga 160 ta davlat kiritgan eng ko'p sonli federasiya o'ziga ma'lum moliyaviy mas'uliyatni olishi shart, a'zo bo'lib kirishda va har yili badal to'lash, rasmiy birinchiliklar va xalqaro uchrashuvlar o'tkazish uchun pul mablag'i ajratish, FIBA tasarrufida o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda ishtirok etish uchun badal to'lash va hokozo.

FIBAning faoliyatida sobiq Ittifoq Federasiyasi juda katta ro'l o'ynagan. Bu masala basketbol bo'yicha mashhur mutaxassis Vladimir Ivanovich Savin samarali xizmati va salmoqli hissalari bilan alohida ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi istiqloлга erishganidan so'ng mamlakatimizning milliy basketbol Federasiyasi hayotida ham unitilmas o'zgarishlar yuz beradi, 1992 yil O'zbekiston milliy basketbol Federasiyasi Osiyo zonal konfederasiyasiga a'zo bo'lib qabul qilinadi.

O'zbekiston basketbol Federasiyasi o'zining funksional faoliyatini Osiyo basketbol konfederasiyasi va FIBAning tartib-qoidalariga hamda ko'rsatmalariga muvofiqlashtirilgan holda amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda O'BFning ustuvor strategik vazifasi – bu Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan turli sport to'garaklari, sport maktablari va sport klublarida shug'ullanib kelayotgan o'g'il-qizlar tarkibidan iste'dodli nomzodlarni izlab topish, ularni mamlakat terma jamoalariga jalb qilishdan iboratdir. Bu ishni amalga oshirishda birinchi navbatda O'BFning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlardagi bo'lim-shahobchalari to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi.

Ushbu jarayonni maqsadli tashkil qilish va uni samaradorligini ta'minlash uchun joylardagi federasiya bo'limlari tarkibida faoliyat yurutuvchi barcha yo'nalishdagi hay'atlar va kengashlar o'zaro hamjihatlikda ish olib borishlari lozim.

Amalga oshiriladigan barcha xududiy jarayonlarga O'BF rahbarlik qiladi, maslahat ko'rsatma va amaliy tavsiyalar beradi.

Mamlakat miqyosida o'tkaziladigan barcha turdagi musobaqalar (chemptonatlar, birinchiliklar. Kubok musobaqalari, ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkaziladigan uch bosqichli musobaqalar va h) doimo O'BFsi nazoratida bo'ladi. Musobaqalarda hakamlik qilish, ularni adolatli o'tkazish, ma'naviy – madaniy jihatdan yuksak saviyada tashkil qilish O'BF tomonidan amalga oshiriladi.


Ichki – mahaliy musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazishda boshlang'ich sport jamiyatlari, mahalla fuqoralar kengashi, boshlang'ich "Kamolat yoshlar harakati" faollari ishtirok etadi.

Mamlakatimizda, uning turli xududlarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha ta'lim muassasalari, sport maktablari, sport klublarida ommaviy va professional basketbolni rivojlantirish hamda uning taraqqiyotini boshqarish samaradorligini ta'minlash ustuvor jihatdan shu soha bo'yicha mutaxassis-kadrlar tayyorlovchi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universitetining ilmiy salohiyati, ushbu maskan professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan o'ta dolzarb nazariy-amaliy qiymatga ega ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanadi.

Bugungi kunda ushbu Universitetning "Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubi" kafedra mutaxassislari O'zbekiston basketbol Federatsiyasi, Toshkent shahri va Respublikamizning turli xududlarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagogika universitetlari, ishlab chiqarish korxonalari va Rossiyaning bir necha ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bolalar sporti va professional basketbol tizimini rivojlantirishga qaratilgan muammolar ustida ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib bormoqda.

Shubhasizki, ushbu tadqiqotlar natijalari mazkur sport turlarini yanada rivojlantirish, ularni istiqbol sari boshqarish imkoniyatlarini yaratadi.

Jismohiy tarbiya va sport sohasining tashkiliy tuzilmasi 1-andozada keltirilgan bo'lib, u tizimning maqsadlariga erishish va vazifalarni bajarish yo'lida aloqalar birdamligi va hamjihatligini ifodalaydi (1-andoza).



1-andoza. Jismoniy tarbiya va sport sohasining tuzilmasi

1.4. Ommaviy basketbolning dolzarb muammolari

O'ta keskin raqobat ostida kechayotgan zamonaviy basketbol musobaqalarida turli o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab favqulodli vaziyatlarda ijro etiladigan tezkor harakatlar, sakrash, xatlash, burilish,

aylanish, kuchli to'qnashuvlar, ko'p marotalab takrorlanuvchi texnik-taktik usullar va o'yin kombinatsiyalari bilan bog'lik yuklamalar hajmi hamda shiddati shunchalik ortganini, o'yinchilar faoliyati aksariyat hollarda inson imkoniyati chegarasida amalga oshirilmoqda.

Amaldagi tajribalarda, xatto ayrim manbalarda ham, sport amaliyotida yuklamalar shiddati va hajmining borgan sari orta borishi - bu tabiiy qonuniyat sifatida izohlanadi. Ehtimol, aynan shu "qonuniyatga" asoslangan holda ayrim mutaxassislar bunday yuklamalarga organizmni moslashtirish, uni bardosh berish imkoniyatini ta'minlash uchun kundalik mashg'ulotlar soni, hajmi va shiddatini o'rttirish zarurligiga urg'u berishadi. Lekin inson-sportchi organizmining imkoniyati ham bechora emasku! Ma'lumki, surunkali og'ir yuklamalarni "ko'raverish" o'z vaqti-soati kelib sportchi organizmini ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi tibbiy-biologik soha mutaxasislari tomonidan ko'p marotalab takrorlanadi.

Shunday ekan, bugungi sport amaliyotida bunday salbiy oqibatlarni oldini olish, mustahkam sog'liqni saqlagan holda katta yuklamalarga bardosh berish imkoniyatini yaratish uchun mashqlar va mashg'ulotlar oraliqlarida, musobaqa o'yinlari yakunida turli shakllarda ijro etiladigan qisqa muddatli relaksosion-nafas (ventilyasion) mashqlardan foydalanish, psixoautogen (ishontirish) shakldagi "so'z" mashqlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu birinchi muammo va uning echimini ta'minlovchi tadbirlarni ifodalaydi.

Ikkinchi muammo va uning echilishi. Ma'lumki, bugungi basketbolda tez-tez umumiy va maxsus jismoniy ish qobiliyati, shu jumladan texnik-taktik harakatlar samaradorligini uzoq muddat davomida saqlash masalalari haqida gap va tortishuvlar bo'lib turadi. Lekin shu va shunga o'xshash muammolarni faqat mashg'ulotlar turi, shakli, yo'nalishi, hajmi va shiddatini "ko'rko'rona" rejalashtirishi hamda ularni amalga oshirish asosida hal qilish bo'yidagi xalqaro

tajribalar, jahon basketbol amaliyoti, xatto o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalaridan ma'lumdir. Masalan, xalqaro sport tajribalaridan, shu jumladan jahon basketbol amaliyotidan ma'lumki, qayd etilgan muammolar global miqyosda, ya'ni psixofiziologlar, shifokorlar, formatsevtlar, dietologlar va albatta, pedagog-trenerlar hamkorligida maqsadli "konsilium" lar asosida hal qilinadi.

Uchinchi muammo – bu zamonaviy basketbolda o'yin faoliyati, ayniqsa o'ta keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab gox hujumda, gox himoyada bajariladigan texnik-taktik harakatlar – to'psiz va to'p urib yugurish usullari, kombinatsiyalar asosida ijro etiluvchi to'p uzatish, uni ilish va savatga tashlash, burilish, aylanish, sakrash kabi elementlarni tezkor hamda ekstremal (favquloda) vaziyatlarda amalga oshirilishi uzoq yoki qisqa vaqt ichida tanani chayqalishi holatiga olib keladi. Natijada statik va dinamik shakldagi muvozanatni saqlash qobiliyatini izdan chiqaradi, tana, qo'l va oyoqlarning tebranishiga olib keladi, bunday holat texnik-taktik usullar texnikasi, harakat koordinatsiyasi va uning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun texnik-taktik harakatlar aniqligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydigan muvozanat saqlash funksiyasini boshqaruvchi markaz-vestibulyar analizatori va uni harakat hamda ko'rish analizatorlari bilan hamkorlikda "ishlash" faolligini "burilma-aylanma" mashqlar yordamida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi dolzarb muammo – bu, ma'lumki, bugungi basketbolda o'naqay basketbolchilar deyarli barcha texnik-taktik usullarni o'ng qo'li ustunligida ijro etadilar, chapaqay basketbolchilar esa aksincha. To'pni boshqarib borishda o'naqay o'yinchilar chalg'ituvchi fintlarni chap tomonga taqlidiy harakatni qo'llab, o'ng tomon bo'ylab to'pni boshqarish harakatini davom etishadi, chapaqaylar esa aksincha. Bundan tashqari, basketbolchilar himoyachilar tomonidan zich qarshilikka duchor bo'lishganida, ularning o'naqaylari sakrab to'p uzatishda ham, sakrab to'pni savatga tashlashda ham havoda yoki

tayanchsiz holatda faqat chap tomonga aylanib shu harakatni ijro etadilar, chapaqaylar esa aksincha. Bunday holatlarni O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining "Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati" kafedrasining o'qituvchisi F.A.Pulatov (2020) o'zining ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlari asosida nafaqat ochib bergan, balki basketbolida barcha texnik harakatlarni o'ng qo'lda ham, chap qo'lda ham birdek mahorat bilan ijro etish qobiliyatini shakllantirish mumkinligini isbotlab bergan.

Darhaqiqat, so'nggi 30-40 yil davomida basketbol o'z mohiyati, mazmuni va yo'nalishi jihatlaridan tubdan o'zgargan, jumladan, texnik-taktik usullar, taktik kombinasiyalar, to'psiz va to'p bilan ijro etilgan harakat «fintlari» (chalg'ituvchi harakatlar) hajmi ortgan ijrochilik san'atining serqirralik doirasi kengaygan. Bugungi basketbol hujum va himoya harakatlarining ko'p martalab keskin almashinuvi bilan farqlanadi. Basketbolchilarning jismoniy va psixofunksional imkoniyatlari nihoyatda kuchaygan lekin, bunday ijobiy progressiv o'zgarishlar bilan bir qatorda musobaqa qoidalarining yangilanib turishi va raqobatning keskinlasha borishi o'yinchilarning texnik, taktik nazariy va psixologik tayyorgarligi mashg'ulot oldi va musobaqaoldi razminkasi hujum harakatlaridan himoya harakatlariga va aksincha himoya harakatlaridan hujum harakatlariga o'tish taktikasi bilan bog'liq muammolarni yaratmoqda va ularni hal qilish zarurligiga e'tibor qaratmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, basketbolning bugungi kun tartibiga bolalar basketbolidan boshlab professional basketbolchilargacha "charhlantirilish" zarur bo'lgan yana bir qator muammolar mavjuddir. Bular: keskin o'zgaruvchan yo'nalishlarda zo'r qarshilik ko'rsatayotgan raqibdan to'pni "berkitib" (unga yon yoki teskari joylashib) boshqarib (to'pni urib) uni yorib o'tish; har xil oraliqlardan shu jumladan 3 ochkoli oraliqdan sakrab o'ng va chap tomonlarga 90° yoki 360° aylanib to'pni savatga tashlash; o'z sherigiga uzatish; to'pni

boshqarishda o'ng va chap tomonlarga bir xil mahorat bilan fintlarni qo'llab (chalg'ituvchi harakat) raqibni chalg'itib o'tish; savat halqasi yoki shchitdan sapchigan to'pni sakrab yana takroran savatga tashlash; to'psiz va to'p bilan hujum qilayotgan raqib o'yinchilarini yo'lini «yopish» va h.

O'yin shiddatini "jo'rtağa" goh sustlashtirib, goh faollashtirib raqib taktikasini "buzish" va uning ruhiyatini muvozanatdan chiqarish kabi masalalardan iboratdir.

Bugun basketbolga xos va amalga oshirilishi zarur bo'lgan yana bir o'ta dolzarb muammolardan biri shuki, bu turli yosh va malakali xatto professional klublar o'yinchilari "o'naqay" va "chapaqay" harakat funksiyalarini (to'p urib boshqarish, to'p uzatish va uni savatga tashlash) simmetrik nisbatga bir hil mahorat bilan ijro eta olmasliklaridadir. L.R.Ayrapetyans va Sh.A.Irmatovlar (2012) 100 dan ortiq yosh basketbolchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazib, ularga «zaif» qo'l bilan to'pni urib harakatlanish va noqulay tomonlarga burilish-aylanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida mashqlar beriladimi degan savol bilan murojat qilishdi va natijalar 88,6-100% "yo'q" javoblari bilan yakunlangan.

Ushbu mualliflarning takidlashicha, yosh basketbolchilar mashg'ulotiga bunday "biryozlamalik" bilan yondoshish ular ulg'ayib, mahorat bosqichiga etganda ham ijrochilik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Bunday fikrni isbotlash uchun mualliflar basketbol bo'yicha O'zbekiston milliy chempionatida ishtirok etgan "Sug'diyona" (Navoiy sh.) va "MHSK" (Toshkent sh.) jamoalarining rasmiy o'yinlarida basketbolchilar musoboqa faoliyatini «stenografik» kuzatuv ostiga olishdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki. "Sug'diyona" basketbolchilarida savatga to'p tashlash hajmi jami 84,2% ni tashkil etgan bo'lsa, bundan faqat 15,8% chap (zaif) qo'l bilan ijro etildi. To'pni urib harakatlanish o'ng qo'l bilan 74,4%, chap qo'l bilan esa 25,6% ni tashkil etdi.

To'pni uzatish – o'ng qo'l bilan-23,4%, qolgani ikki qo'l bilan ijro etildi. Chap qo'l bilan umuman to'p uzatilmadi.

“MHSK” jamoasida savatga to'p tashlash o'ng qo'l bilan jami 78,9%, chap qo'l bilan – 21,1% ga teng bo'ldi. Jamoada bir nafar “chapaqay” o'yinchi bo'lib, u o'ng qo'l bilan umuman savatga to'p tashlamadi. “O'naqay” basketbolchilarda o'ng qo'l bilan to'pni urib harakatlanishi 62,5% ni, chap qo'l bilan esa – 37,5% ni tashkil etdi. To'p uzatish o'ng qo'l bilan 73,1%, chap qo'l bilan 26,9%ga teng bo'ldi. Ta'kidlash joizki «zaif» qo'l bilan savatga to'p tashlash, to'pni urib harakatlanish va to'pni uzatish ko'nikmalari 90% dan ortiq muvofaqiyatsiz natijalar bilan yakunlandi. Afsuslanarli joyi shundaki, basketbol bo'yicha chop etilgan va amalda qo'llanilib kelinayotgan hujjatlarda (fan dasturlari, rejalashtiruv hujjatlari, tanlov va nazorat testlari), maxsus darslik va o'quv qo'llanmalarda to'pni o'ng va chap qo'l bilan bir hil mahorat bilan (simmetrik) boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish masalasi umuman joy olmagan.

Basketbol olamida mashhur, ko'plab professional basketbol jamoalarini etishtirgan Amerikalik Nik Sortel (2005) eng nufuzli xalqaro musoboqalarda ishtirok etuvchi etakchi basketbolchilar ham “noqulay” qo'l bilan to'pni urib, raqibni chalg'itib o'tish, to'pni uzatish va savatga tashlash kabi texnik usullarni mahorat bilan ijro etaolmaydilar deb ta'kidlaydi. Ushbu mutaxassisning fikriga qaraganda, buning yagona sababi basketbolga dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab, ko'p yillik sport trenirovkasining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga “noqulay” (zaif) qo'l bilan texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirish “noqulay” tomonlarga joydan va sakrab burilish-aylanish mashqlarini alohida qo'llanmasligida ekan.

Nik Sortel basketbolda “o'naqay” va “chapaqay” harakat funksiyalarini erta yoshlikdan boshlab simmetrik tartibda muntazam

shakllantira borish ijrochilik mahoratini boyitadi, uning doirasini kengayishiga imkon yaratadi deb fikr bildiradi.

Sportchilar tayyorlash amaliyotiga bunday prinsipda yondoshish zarurligi va afzalligi yana bir qator mutaxassis olimlar tomonidan tavsiya etilgan (I.Tuchashvili, V.Yanchuk. 1998; A.Pogrebnoy va b.. 2007).

Yuqorida qayd etilgan o'ta dolzarb va muhim amaliy ahamiyatga ega muammolar mamlakatimizda malakali basketbolchilarni tayyorlash amaliyotiga ham to'g'ridan-to'g'ri taaluqlidir. Bu borada echilishi zarur bo'lgan yana bir tashkiliy-uslubiy muammo kun tartibida "ko'ndalang" bo'lib turibdi. Gap shundaki, respublikamizda yuqori malakali, raqobatbardosh basketbolchilarni tayyorlash va mamlakatimiz terma jamoalariga iste'dodli sport zahiralarini etkazib berish ustuvor jihatdan bolalar basketbolini maqsadli tashkil qilish, jumladan ko'p yillik sport trenirovkasining barcha bosqichlarini (boshlang'ich, o'quv-mashg'ulot, takomillashtiruv, oliy sport mahorati) izchilliligi va mutanosibligini ta'minlash, o'rgatish, pedagogik texnologiyalarini joriy etish va albatta, o'quv mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish zarurligiga bog'liqdir. Afsuski, ushbu masalada bir qator jumboqlar, kamchiliklar yo'q emas, Chunonchi, barcha turdagi ta'lim muassasalarida, ayniqsa umumta'lim maktablarida o'tkaziladigan akademik darslarda va sinfdan yoki maktabdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan sport mashg'ulotlarida muayyan sport turiga mehr, qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda sport bilan shug'ullanish salomatlik, ruhiy va jismoniy barkamollik uchun o'ta foydali ekanligi haqida motivasiya hosil qilish, ularda muayyan basketbol bilan shug'ullanishi ehtiyojini tug'dirish ishlariga etarli e'tibor qaratilmaydi. Sport maktablari,

Oliy sport mahorati maktablari, sport klublari va terma jamoalar o'rtasida iste'dodli basketbolchilarni tayyorlashga qaratilgan yagona «konveyr» tizim mavjud emas. Vaholangki, xalqaro pog'onaga mos yuqori malakali, raqobatbardosh basketbolchilarni tarbiyalash aynan

shunday tizim, shunday yondoshuv asosida amalga oshirilishi mumkinligi jahon sport amaliyoti tajribasidan ma'lumdir. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida rivoj topib borayotgan jismoniy tarbiya va sport tamomila yangicha tus olib, samarali yo'lda shakllanib bormoqda.

Mamlakatimizning barcha mintaqalarida, xatto uzoq-uzoq qishloq hududlarida ham minglab jahon standartlariga mos sport inshootlari barpo etildi va ular millionlab farzandlarimiz, sportchilarimiz hamda turli qatlamga mansub aholimizga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Respublikamizda borgan sari o'ta nufuzli musobaqalar Osiyo va jahon chempionatlari, xalqaro turnirlarni muntazam tashkil etilishi odat tusiga kirib bormoqda. 2000 yildan boshlab kadrlar tayyorlash milliy dasturiga «hamohang» bo'lgan ko'p bosqichli «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» kabi ommaviy sport musobaqalarining joriy etilishi va muntazam o'tkazilib borilishi shubhasizki, jismoniy tarbiya va sportni xalqimiz, ayniqsa o'quvchi-yoshlarimiz ongiga singib, ularning kundalik ehtiyojiga aylanib bormoqda.

Albatta, ommaviy sport salohiyatini oshirish va professional sportni shu jumladan basketbolni ham jahon maydoniga olib chiqish o'qituvchi-murabbiy kadrlarga bog'liqdir. Bu borada ham davlatimiz tomonidan taxsinga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani isbot talab qilmaydi. Shunday bo'lsada hali ushbu masalada muammo va kamchiliklarimiz yo'q deb bo'lmaydi.

Zamonaviy basketbolga xos o'yin usullariga o'rgatish ularni takomillashtirish va jamoa o'yinchilarining musobaqa faolligini oshirishda yuqori malakali basketbolchilar uchun belgilangan model ko'rsatkichlarga mo'ljal qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu model ko'rsatkichlar jadvallarda keltirilgan (2-jadval).

**Yuqori malakali basketbolchilarda har bir o'yin bo'yicha qayd
etiladigan o'rtacha musobaqa ko'rsatkichlari
(Yu.D.Jeleznyak-2019 bo'yicha)**

O'yin ko'rsatkichlari	Erkaklar	Ayollar
O'yinda savatga to'p tashlash soni	57-61	62-66
Ochkolar	78-80	75-80
Ikki ochkoli to'p tashlash aniqligi - %	50-53	46-51
Uch ochkolik to'p tashlash aniqligi - %	34-37	30-35
Jarima to'pini tashlash aniqligi - %	73-76	72-75
Olib qo'yish	7-9	7-10
To'pni to'sish	2-4	3-4
O'z shchitidan sapchigan to'pni egallash soni	22-24	25-28
Raqib shchitidan sapchigan to'pni egallash soni	8-12	10-12
Ochko keltiruvchi uzatish	14-16	14-18
To'pni yo'qotish	19-23	22-27
Follar	21-24	15-18

**Yuqori malakali basketbolchilarda qo'llaniladigan hujum turlari
va ularni samaradorligi (Yu. D. Jeleznyak-2020 bo'yicha)**

O'yinlar	Ko'rsatkichlar	Tezkor yorib o'tish	Avvalroq boshlangan hujum	Pozitsion hujum
Erkaklar	Hujumlar soni. %	11.8	17.2	71.0
	Samaradorlik. %	52.6	52.6	47.6
Ayollar	Hujumlar soni. %	20.0	5.2	74.4
	Samaradorlik. %	45.7	40.8	55.3

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida aytib o'tilgan ishlarni amalga oshirishda jismoniy tarbiya va sport tizimidagi barcha boshqaruv tashkilot va organlari ro'li va o'zaro mustahkam, sifatli aloqalarni o'rnatish bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Tayanch iboralar: Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston basketbol federatsiyasi, Davlat – Sport vazirligi, Ta'lim muassasalari, sport maktablari, Boshlang'ich JT va S kengashlari.

Mustaqil ta'lim uchun savollar

1. O'zbekistonda basketbol taraqqiyotini boshqarishning qanday davlat va jamoat organlari mavjud? Ularni ish faoliyatiga izoh bering.
2. Basketbol taraqqiyotini boshqaruvchi organlar qanday tuzilishga ega va ular qanday ishlarni amalga oshiradi?
3. Ommaviy va professional basketbol taraqqiyoti qaysi yo'nalishlarda boshqariladi?
4. O'zbekistonda basketbolning «kechagi». «bugungi» va «ertangi» holati nimalar bilan izohlanadi?
5. So'nggi yillarda basketbol qoidalarida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
6. Qoidalarning o'zgarishi o'yin mazmuniga ta'sir etdimi? Izohlab bering.
7. O'rgatish va takomillashtirishda basketbolni qaysi dolzarb masalalariga e'tibor berish lozim?
8. Basketboldagi dolzarb muammolarni sanab bering?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Айрапетьянц Л.Р., Ирматов Ш.А. Методика симметричного совершенствования право- и левосторонних двигательных функций при занятиях баскетболом. // Методические рекомендации. Т.: 2012. – 31 с.
2. Ganieva F.V. Sport pedagogik mahoratini oshirish (basketbol). // O'quv qo'llanma. Т.: 2023. – 267 b.
3. Баскетбол. Теория и методика обучения / под общ. ред. Д.С. Нестеровского. – М.: Академия. 2004. – 336 с.
4. Каримов Б.З.. Теория и методика баскетбола.// Учебник для высших учебных заведений. Т: 2020. – 585 с.

5. Karimov Nuriddin Abdullo o'g'li. Ўзбекистон Республикасида sport sohasining rivojlanishi \ Science and Education. 2020. №2

6. Miradilov B.M., Karimov B.Z., Umbetova M.A. Sport pedagogic mahoratini oshirish (basketbol). // O'quv qo'llanma. T.: 2017. – 268 b.

7. Miradilov B.M. Basketbol nazariyasi va uslubi. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Shafoat Nur Fayz". 2021. – 456 b.

8. Методы подготовки баскетболистов. Методический журнал. Современный баскетбол. Под редакцией Белаш В.В. г. Южный. Октябрь. 2005 – 56 с.

9. Нестеровский Д.И. Теория и методика баскетбола. // Учебное пособие для студентов вузов. М.: "Академия". 2010. - 336с.

10. Ник Сортэл. Баскетбол: 100 упражнений и советов для юных игроков. М.: АСТ - Астрель. 2005. – 237 с.

11. Платонов В.Н. Периодизация спортивной тренировки. Общая теория и ее практическое применение. Олимпийская литература, 2013. С. 121-139.

12. Pulatov F.A. Pulatov A.A., Zamonaviy sport o'yinlarida "O'naqay" va "chapaqay" harakat funksiyalarini simmetrik tartibda rivojlantirish zaruriyati // O 'zDJTI, 2017, - 6. 77-85.

13. Пулатов Ф.А. "Ўнақай" ва "Чапақай"лар ёки амбидекстр бўлиш афзалми? -Т.: "Ilmiy texnika axboroti-Press nashriyoti", 2017.- 6.81-88.

14. [https:// olamsport.com/www.basket.uz](https://olamsport.com/www.basket.uz)

15. <https://lex:uz/>

16. [https:// uz.wikipedia.org/](https://uz.wikipedia.org/)

17. [https:// olympic.uz/](https://olympic.uz/)

18. [https:// fiba.com/](https://fiba.com/)

19. [https:// www. Uzbekistan.basketball/](https://www.Uzbekistan.basketball/)

II BOB. KO'P YILLIK SPORT TRENIROVKASI JARAYONINING SIKLLILIGI VA DAVRLILIGI

“Sport”, “sport trenirovkasi”, “sport musobaqalari” atamaları keng ma'noda musobaqa faoliyati, musobaqaoldi jarayoni, musobaqaga tayyorgarlik va unga maxsus tayyorgarlik ko'rish, shu kabi yo'nalish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy, madaniy-maishiy, jismoniy va psixofunksional, texnik va taktik jarayonlarni o'z tarkibiga oladi, hamda o'zidagi qobiliyatlarni musobaqalarda namoyon etish hisoblanadi. “Sport” tushunchasining mohiyati insonni jamikiy to'siq va qiyinchiliklarni engib, o'z imkoniyatlari chegarasini yanada kengaytirishga qaratilgan intilishidan iborat.

Zamonaviy sport – bu o'z evolyusion tarixi, mavqei va maqomi hamda o'ziga xos musobaqa qoidalariga bo'lgan ko'pdan – ko'p turlardan tarkib topgan.

Sport – bu ruhiyatni “charxlovchi”, kayfiyatni ko'taruvchi insonni jismonan, ma'nan va ruhan shakllantiruvchi, uning “ichki” va “tashqi” madaniyatini (morfologiyasi – qaddi-qomati va funksional resursini) takomillashtirib boruvchi, insoniyatga cheksiz quvonch hadya etuvchi, zamonga mos, o'ta ommaviy ijtimoiy harakatdir. Demak, sport chuqur ma'noli, ko'p qirrali ijtimoiy omildir.

“Sport” atamasi etimologik nuqtai nazaridan inglizcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, daraxt kurtaklarini bir – biridan “o'zib” o'sishini anglatadi.

“Trenirovka” atamasi inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida “mashq qilish”, “charxlash” ma'nosini bildiradi. Ushbu atama turli sohalarida qo'llaniladi. Masalan “aqliy (intelektual) trenirovka”, “jismoniy trenirovka”, “gipoksik trenirovka”, “hayvonlar trenirovkasi” tushunchalari amaliyotda keng ma'noda o'z aksini topgan, “Hayvonlar trenirovkasi”, “Hayvonni dressirovka qilish” tushunchasidan tubdan farq qilib, hayvonlarni biror-bir tadqiqot uchun tayyorlash yoki

hayvonlarni (masalan itni) “harbiy xizmatga” tayyorlash va hokazo sohalarda amalga oshirilishi mumkin.

Sport amaliyotida “sport trenirovkasi” atamasi “sport tayyorgarligi” atamasi bilan mantiqan yaqin bo‘lsada, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. “Sport tayyorgarligi” tushunchasi keng qamrovli ma’noga ega bo‘lib, sportchini jamiyki faoliyatini (uyqu, trenirovka, ovqatlanish, profilaktika va hokazo) musobaqaga tayyorlashga qaratilgan jarayondir. “Sport trenirovkasi” esa bir maqsadga yo‘naltirilgan jarayondir va nisbatan torroq ma’noni anglatadi.

Muntazam sport trenirovkasi natijasida insonning harakat faoliyati shakllanib boradi, yangi harakat shakllari vujudga keladi, hayotiy zarur harakat malakalari (yugurish, sakrash, yurish va hokazo), ko‘nikmalari takomillashadi, psixik sifatlar (xotira, ong, idrok, iroda, diqqat va h.) sayqal topadi. Muayyan sport turiga xos harakat malakalari mukammallashadi.

2.1. Sport trenirovkasining maqsadi, vazifalari va mazmuni

Sport trenirovkasi – bu uzoq muddatli pedagogik jarayon bo‘lib, o‘z oldiga o‘yin malakalariga o‘rgatish, ularni takomillashtirish, yakka, guruh va jamoa texnik va taktik harakatlarini o‘zlashtirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Vazifalari:

- ma’naviy va ruhiy xislatlarni tarbiyalash;
- jismoniy va funksional tayyorgarlikni taraqqiy ettirish;
- sihat-salomatlikni mustahkamlash;
- asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalash (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik);
- hayotiy zarur malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, suzish);

- “Alpomish va Barchinoy” test me’yorlariga tayyorgarlik ko’rish va topshirish;

- texnik va taktik harakatlarni ijro etishda zarur qobiliyat va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish.

- o’yin malakalari – texnik va maxsus sifatlarni taraqqiy ettirish;

- o’yin malakalari – texnik va taktik harakatlarni yuqori saviyada ijro etishni o’zlashtirish;

- hujum va himoyada jamoa bo’lib, maqsadga muvofiq harakat qilishni shakllantirish;

- basketbol bo’yicha nazariy bilimlar va amaliy ko’nikmalarni egallash (rejalashtiruv hujjatlari, kundalik olib borish, o’rgatish texnologiyasi, hakamlik amaliyoti, ish qobiliyatini tiklash vositalari);

- o’zlashtirilgan o’yin, malaka va ko’nikmalarni musobaqada samarali qo’llashni joriy etish.

2.2. Sport trenirovkasining uslublari, vositalari

Shartli ravishda sport trenirovkasi uslublarni 3 ta guruhga bo’lish mumkin: so’z, ko’rgazmali va amaliy. Ushbu uslublarni alohida yoki birgalikda (baravariga) trenirovka mashg’ulotining vazifalariga mos bo’lishi, mazkur vazifalarni hal eta olishi lozim. Bundan tashqari bu uslublarni trenirovka prinsiplariga (malakasiga) mos bo’lishi darkor.

So’z uslubi – murabbiy tomonidan biror texnik element, malaka yoki jismoniy mashqlar mohiyati, tarkibiy tuzilishi: koordinasion, biomexanik va kinematik xususiyatlarini bayon etish, tushuntirish hamda tasavvur hosil qilishdan iborat. Ko’rgazmali uslub, odatda so’z uslubi bilan bir vaqtni o’zida qo’llaniladi va mashqlar namunasi, texnik nushalari hamda ijro etish tartibini videofilmlar, slaydlar va rasmlar yordamida namoyish etishdan iborat.

Amaliy uslublar o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi:

1) Muayyan sport turiga xos texnik-taktik malaka, harakat ko'nikmalarini hosil qilish va shakllantirishga qaratilgan uslublar;

2) Jismoniy sifatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan uslublar.

Ushbu uslublar qayd etilgan ikki holatda ham qo'llanilishi mumkin.

Sport texnikasini (harakat malakasini) to'liq yoki qismlarga bo'lib o'rgatish uslublari mavjud. Ayrim hollarda harakatlarni qismlarga bo'lib o'rgatish imkoniyati bo'lmasa, bunday harakatlar to'liq holda o'rgatiladi. Ammo sport texnikasini aniq tarkibiy tuzilishiga mos ravishda o'rgatish uchun uni imkoniyati boricha qismlarga bo'lib o'rgatish katta samara beradi. Bunda, ayniqsa taqlidiy, ya'ni to'psiz bajariladigan (yoki to'pni o'rniga qulay buyum, moslama) mashqlar juda qo'l keladi.

Qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi. Bu uslubni qo'llash dastlabki, boshlang'ich o'rgatish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Harakatning texnik qismlari shakllana borgan sari (qaytarish uslubi yordamida) uni to'liq holda o'rgatish uslubi o'z o'rnini egallab boradi.

Dastlabki o'rgatish jarayonida tayyorlovchi va yondashtiruvchi mashqlarga e'tibor berish muhim ahamiyatga egadir.

Sport texnikasini qismlarga bo'lib o'rgatish uslubi nafaqat boshlang'ich o'rgatish jarayonida, balki texnik-taktik mahoratning eng yuqori bosqichlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, yangi texnik usul yoki taktik kombinasiyalarni kashf etishda juda qo'l keladi.

Harakat (jismoniy) sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan uslublar. Bunday uslublarning tarkibiy mohiyati mashqlarni qo'llanish xususiyatiga (mashq soni, og'ir-engilligi, shiddati) qarab farqlanadi.

Sport trenirovkasi davomida barcha mashqlar 2 ta asosiy uslublar doirasida bajariladi: to'xtovsiz va to'xtab-to'xtab qo'llash uslublari.

To'xtovsiz uslub – bu mashqni to'xtovsiz yoki biror harakat faoliyatini uzluksiz ijro etilishi bilan farqlanadi.

To'xtab-to'xtab qo'llash uslubi – mashqni ma'lum vaqt oralig'ida qo'llash bilan ifodalanadi. Ikki uslub qo'llanilganida ham mashqlar uzluksiz yoki to'xtab bajarilishi mumkin. Mashqlarni tanlash va ularni qo'llash xususiyatiga qarab trenirovka mashg'uloti umumlashtirilgan (integral) yoki muayyan yo'nalishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Maksimal kuchlanish uslubi – aksariyat yaxshi tayyorgarlikka ega sportchilarga nisbatan qo'llanilishi tavsiya etiladi. Bu uslub odatda maksimal og'irliklar yoki kuch mashqlarini maksimal marta qaytarish bilan izohlanadi. Mashqlarni umumlashtirilgan holda qo'llash ularni bir vaqtni o'zida bir necha sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Mashqlarni muayyan yo'nalishda qo'llash esa aksariyat alohida sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Bundan tashqari o'yin va musobaqa uslublari mavjud bo'lib, ular mustaqil uslublar shaklida qo'llaniladi.

O'yin uslubi – bu biror harakatni o'yin tarzida yoki o'yin davomida ijro etilishi bilan ifodalanadi. Bu uslub nihoyatda samarali bo'lib, uni qo'llanilishida mashqlar muayyan o'yin vaziyati doirasida bajariladi. Mashg'ulotni aynan shu tarzda olib borilishi shug'ullanuvchilarning emosional faolligini ko'taradi. Ushbu uslub yordamida murakkab texnik-taktik ko'nikmalar (taktik fikrlar, taktik kombinasiyalarni mos tanlash va h.) hamda psixologik hislatlar shakllantiriladi.

Musobaqa uslubi – aynan musobaqa mashqlarini bajarish, mashg'ulotni musobaqa tarzida o'tkazish va turli musobaqalarda ishtirok etish bilan bog'liq. Bu uslub mashqlarni yuqori shiddatda bajarilishini taqazo etadi yoki musobaqada g'alaba qozonish uchun qanday shiddat, usul, aniqlik kerak bo'lsa, shunday tarzda bajariladi.

Musobaqa uslubi sport trenirovkasi jarayonida jamiyki shakllangan texnik-taktik malakalar, kombinasiyalar, sifatlar, qobiliyatlarni umumlashtirishda, bog'lashda asosiy ro'lni o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda mazkur uslubni qo'llashda sportchilarni malakasi, mahorati va imkoniyatlari inobatga olinishi zarur. Qayd etilgan uslublardan tashqari qo'shma yoki aralash uslub va harakatni tahlil qilish uslublari mavjud.

Qo'shma uslubni qo'llash natijasida bir vaqtning o'zida bir nechta sifatlar (kuch, tezkorlik, chidamkorlik va h.) va malakalar (texnik usul, taktik harakat) shakllantiriladi.

Sport mashg'uloti prinsiplari.

Sport trenirovkasi jarayoni ma'lum prinsiplar (tamoyillar), tartib-qoida, ilmiy va uslubiy qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu qonuniyatlar sportchini tayyorlash tizimini bir tartibda, to'g'ri va samarali tashkil qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Sport trenirovkasining prinsiplari jamiyki tarbiya va o'rgatish jarayonida umumpedagogik-didaktik prinsiplarga asoslanadi. Lekin sport trenirovkasi davomida qo'llaniladigan shiddatli, og'ir va davomli mashqlar ushbu prinsiplarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki, bu holat shug'illanuvchilar organizmini to'g'ri rivojlanishiga, ularning psixofunksional imkoniyatlarini ehtiyotkorlik bilan kengaytirishga qaratiladi.

Sport nazariyasi va amaliyotida quyidagi asosiy prinsiplar qo'llaniladi: Onglilik va faollik, muntazamlik va uzluksizlik, mutanosiblik, mukammallik, ko'rgazmali, yuklama hajmi va shiddatini "to'liqsimon" yo'nalishda oshirish va ilmiylikdir.

Onglilik va faollik prinsipi o'quv-trenirovka jarayonida bosqichma-bosqich qo'yiladigan barcha maqsadlarga erishish, o'yin malakalarini o'zlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan muhim shartlardan biridir.

O'quv-trenirovka topshiriqlarini shug'ullanuvchi imkoniyatiga mos tarzda berish – mutanosiblik (imkonbob va individuallashtirish) prinsipi. Ushbu prinsip beriladigan barcha trenirovka topshiriqlari shug'ullanuvchini yoshi, jinsi, tayyorgarligi va individual xususiyatlariga mos bo'lishni taqozo etadi.

Muntazamlilik-uzluksizlik prinsipi ko'p yillik o'quv-trenirovka jarayonida mashg'ulot uzluksizligini ta'minlashda, mashg'ulotdan mashg'ulotga talablar darajasini oshirib borishni maqsad qilib qo'yadi.

Yuklamani "to'liqinsimon" tartibda oshirish prinsipi – o'quv-trenirovka jarayonida mashg'ulot topshiriqlarini murakkablashtirib borish, yuklama hajmi va shiddatini asta-sekin oshirib borish, mahoratni yangi bosqichlarga olib chiqish.

Ko'rgazmalilik prinsipi – barcha prinsiplarni samarali qo'llash va maqsadga muvofiq natijaga erishishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida qayd etilgan barcha prinsiplar quyidagi didaktik tartib-qoidalar asosida qo'llanilishi zarur:

- oddiydan murakkabga;
- o'zlashtirilgandan o'zlashtirilmaganga;
- osondan qiyinga.

Sport trenirovkasi qonuniyatlari.

Muhokama etilgan prinsiplar sport trenirovkasining qonuniyatlariga mos bo'lishi shu jarayonni samarali tashkil qilinishiga qaratiladi.

Sport trenirovkasi quyidagi qonuniyatlar asosida olib boriladi: "Yuqori natijalarga yo'naltirish", "Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligini ta'minlash". "Trenirovka mashg'ulotlarining uzluksizligi", "Yuklamani asta-sekin va maksimal tarzda oshirish", "Yuklamani to'liqinsimon tarzda qo'llash (o'zgartirib borish)", "Trenirovka jarayonini takrorlanishi (siki) asosida tashkil qilish".

Yuqori natijalarga yo'naltirish.

O'quv-trenirovka jarayoninig bosh maqsadi – sportchilarni musobaqaga yuqori “sport formasi” darajasida olib chiqish va ushbu musobaqada yuqori sport natijasiga erishish imkoniyatini yaratishdan iborat. Demak, muntazam, uzluksiz o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida qo'yiladigan strategik vazifa sportchini yuqori natijalarga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lishi darkor.

Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligini ta'minlash.

Basketbol bo'yicha maxsus – ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar 9- 11 yoshdan boshlab o'tkaziladi. Lekin “chuqur” ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik jarayonigacha yosh sportchilar har tomonlama jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikka ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. 15- 16 yoshga to'lgan o'smirlar bilan ishlashda ixtisoslashtirish va universallilik prinsipi ustun turadi. 17-18 yoshda o'quv-trenirovka jarayoni individuallashtirish yo'nalishida bo'ladi, o'yinchilarni mahorat-iste'dodi doirasida ularni egallagan o'yin funksiyalari yanada chuqur ixtisoslashtirilib, shakllantirilib boriladi.

Trenirovka mashg'ulotlarining uzluksizligi.

Trenirovka jarayonida uchraydigan turli tanaffuslar sportchi va trenerning oldiga qo'ygan maqsadini yo'q qilishga olib keladi. Shuning uchun ko'p yillik trenirovka jarayonida muntazamlilikni uzilishi, turli tanaffuslarni ro'y berishiga yo'l qo'ymasdan, uni uzluksizligini ta'minlashi kerak. Lekin ushbu uzluksizlilik trenirovka yuklamasini dam olish, ish qobiliyatini tiklash bilan almashinib turishi asosida amalga oshirilishi zarur.

Yuklamani asta-sekin va maksimal tarzda o'stira borish.

Aynan shu qonuniyat baskeibolchilarning barcha kuch-imkoniyatlarini musobaqaga safarbar qilishga qaratiladi. Buning uchun ko'p yillik trenirovka jarayoni davomida jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikka oid vazifalar, topshiriqlar va mashqlar asta-sekin “osondan qiyinga”, “oddiydan murakkabga”, “o'zlashtirilgandan

o'zlashtirilmaganga" tartibi asosida maksimal hajm va shiddat darajasida ijro etilishiga qaratilishi lozim.

Yuklama hajmi va shiddatini to'lginsimon oshirish.

Ko'p yillik trenirovka jarayonida yuklama to'lginsimon tarzda oshirib borilishi lozim. Bu qonuniyat organizmni yuklamadan so'ng tiklanish muddatiga, charchoq asoratlarini "yo'qotish" vaqtiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yuklama yuilan dam olish, yuklama bilan organizmni tiklovchi mashq-tadbirlarni muvofiq va samarali qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega.

Trenirovka jarayoninig takrorlanishi (siklliligi).

O'quv-trenirovka jarayoni mikro, makro va mezosikllarga - bosqich va davrlarga bo'linadi. Aynan ushbu sikllar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida "spiralsimon" tartibda takrorlanishi yuqori natijalarga olib chiqishga qaratiladi.

O'rgatish va mashg'ulot vositalari.

Basketbolida ham boshqa sport turlari kabi o'rgatishning asosiy vositasi jismoniy va texnik-taktik mashqlardan iborat bo'ladi. Ular juda turli - tumandir. Shuning uchun ularni o'rgatish bosqichida qo'llash ma'lum vazifalarni hal qilish asosida turkumlanadi. Bunday turkumlanishga basketbolchilarning musobaqa faoliyati asos qilib olinadi. Shunga bog'liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi: asosiy yoki musobaqa va yordamchi trenirovka mashqlari (4-jadval).

4-jadval

Mashg'ulot vositalari

Umumiy tayyorgarlik	Maxsus tayyorgarlik	Musobaqa tayyorgarlik
Sportchining serqirrali rivojlanishi	Tanlangan sport turi yo'nalishi bo'yicha mos kelishi	Tanlangan sport turi bo'yicha o'ziga xos shart sharoitlarini yaratish uchun asosiy hisoblanadi

Musobaqa mashqlari - bu basketbolga xos bo'lgan xususiy, o'ziga xos bo'lgan mashqlardir. Bunda texnik usullar va taktik harakatlar musobaqa sharoitidagi o'yin holatlariga mos holda bajariladi.

Mashg'ulot mashqlari – bu asosiy malakalarni egallashni engillashtirish, tezlashtirish va ularni qo'llash samaradorligi, ishonchliligini ta'minlashga qaratiladi. Ular maxsus va umumrivojlantiruvchi mashqlardan tashkil topadi.

Maxsus mashqlar - ikki guruhga bo'linadi: tayyorgarlik mashqlari va yondoshtiruvchi mashqlar. Tayyorgarlik mashqlaridan asosan maxsus jismoniy sifatlarni tarbiyalashda foydalaniladi. Yondoshtiruvchi mashqlardan muayyan texnik harakatlarni egallashga qaratilgan jarayonda foydalaniladi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar - dan asosiy jismoniy sifatlarni tarbiyalashda va zarur jismoniy sifat, harakat ko'nikmasi va malakalarini takomillashtirishda foydalaniladi.

Barcha mashqlar o'zining yo'nalishiga qarab trenirovkalarning tarkibiy qismiga kiritiladi. Bu tayyorgarliklar quyidagilardir: umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, integraldir. Har bir tayyorgarlik turlarining o'ziga xos etakchi vositalari mavjud bo'lib, ular yordamida mos vazifalar echiladi. Shu bilan birga bir tayyorgarlik turidagi mashqlar bilan yaqindan bog'langan bo'ladi. Masalan, shug'ullanuvchida tezkor-kuch sifati zarur darajada rivojlanmagan bo'lsa, u hujum texnikasini bajara olmaydi. Bu holda tezkor-kuch sifatini rivojlantirishga oid mashqlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Basketbol harakatlariga o'rgatishda vositalarning samarasi ko'p xollarda u'larni qo'llash uslublariga bevosita bog'liq bo'ladi. Uslublarini tanlash qo'yilgan vazifa, shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog'liq xolda tanlanadi va amalga oshiriladi.

Qo'yilgan vazifaga bog'liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo'llab, turlicha foydalanish mumkin. Undan tashqari har bir tayyorgarlik turida vazifalar va mashqlarni qo'llash ketma-ketligi ham ma'lum mantiqiy bog'liqlikka egadir.

Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o'zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o'rganilayotgan texnik usulni umumiy tuzilishini ifoda etadi. Yondostiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan texnik tayyorgarlikka o'tishda ko'priq vazifasini o'taydi. Ma'lum murakkablik asosida qo'llaniladigan texnik mashqlar taktik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu asosida keyinchalik yakka tartibdagi taktik harakatlar o'rganiladi.

2.3. Sport trenirovkasining davriyligi

Yillik tayyorgarlik siklining davrlar va bosqichlarga bo'linishi ko'p yillik sport trenirovkasi jarayonida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, ish qobiliyati va "sport formasi" ni muayyan tartibda shakllantirish, ushbu faollikni ma'lum muddat ichida (musobaqa sikli davomida) saqdab turish, uni tiklab borish, "vaqtincha yo'qotish" va yana qayta shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni echishga qaratiladi.

"Sport formasi" deb sportchining eng yuqori natijaga erishishiga imkon beradigan holatiga aytiladi. Bu holat jismoniy, texnik, taktik va psixofunksional tayyorgarlikning eng yuqori darajada shakllangan "cho'qqi" si bilan belgilanadi.

Sport formasining shakllanishi uch fazadan iborat bo'lib, ular bir yillik va ko'p yillik trenirovka jarayonida ma'lum tartibda almashinib turadi.

Birinchi faza — sport formasini shakllanishiga poydevor yaratish va uni eng takomiliashuv darajasiga ko'tarilishini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi faza – takomillashgan sport formasini turg'un holatda saqlashdan iborat.

Uchinchi faza – sport formasining vaqtincha susayishi bilan farqlanadi.

Nima uchun yuqori darajada shakllangan sport formasini muttasil uzoq vaqt saqlab turish imkoni yo'q degan savol tug'iladi.

Bu savolga quyidagicha izoh berish mumkin:

Birinchidan – takomillashtirish jarayonining muayyan bosqichida shakllangan sport formasi navbatdagi bosqich uchun mahorat darajasidagi sport formasi bo'la olmaydi.

Ikkinchidan – shug'ullanuvchi organizmning harakatlariga moslashishida ish qobiliyati doimo yuqoriga qarab uzluksiz o'sib boravermaydi. Mashg'ulotlarning yalpi yuklamalaridan so'ng organizmda charchoq asoratlari vujudga keladi. Ularni bartaraf etish "yo'qotish" uchun ish qobiliyatini tiklash zarur. Buning uchun esa ma'lum muddat kerak. Aynan ana shu tiklanish davri tugagandan so'ng ish qobiliyatini taraqqiy ettirish va sport formasini yanada yuqori darajasiga ko'tarishga imkon yaratiladi.

Uchinchidan – sportchining har tomonlama tayyorgarlik darajasini muntazam oshirib borish to'liqsimon yo'nalishda amalga oshirilishi kerak. Bu organizmni harakat yuklamalariga biologik qonuniyatlar asosida moslashib borish bilan izohlanadi.

Binobarin, sport trenirovkasi jaryoni 3 davrga – tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlariga bo'linadi.

Bir yillik o'quv sikli tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlaridan iborat.

Tayyorgarlik davri da (yarim yilda 1,5-2 oy va yillik siklda 3-4 oy) umumiy va maxsus tayyorgarlik bosqichlari o'ta muhim hisoblanadi. Chunki keyingi musobaqa davri uchun bu tayyorgarliklar poydevor bo'ladi.

Ushbu davrda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

1. Umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va takomillashtirish.

2. Basketbol o'yiniga xos kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va sifatlarini yanada rivojlantirish va shakllantirish.

3. Axloqiy-irodaviy va ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirish.

4. O'yin malakalari o'zlashtirib

5. Taktik malakalarni taktikasini o'zlashtirib borish va takomillashtirish..

6. Nazariy bilimlarini oshirish va takomillashtirish.

Tayyorgarlik davri o'z navbatda 3 bosqichga bo'linadi:

1. Umumiy tayyorgarlik bosqichi – mazkur bosqichda tayyorgarlikning barcha turlari bo'yicha ruhiy-jismoniy – funksional bazis (poydevor) yaratiladi, barcha jismoniy sifatlar shakllantiriladi, hayotiy zarur malakalar (yurish, yugurish, sakrash, to'xtash va h.) takomillashtiriladi.

Bu bosqichda tayyorgarlik turlariga oid vositalar (mashqlar) hajmi quyidagi nisbatda taqsimlanadi:

Umumiy tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlar hajmi ko'p, shiddati (mashqlarni ijro etish tezligi) sekin bo'ladi.

2. Maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichi – Ushbu bosqich aksariyat sport formasini tarkib topishiga bag'ishlanadi.

Bu bosqichda maxsus jismoniy sifatlar (basketbolga oid kuch-tezkorlik-chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, sakrash, sakrashga bo'lgan chidamlik) rivojlantiriladi, ruhiy hislatlar (ko'rish chuqurligi, ko'rish doirasi, xotira, idrok, ong, diqqat, atrof-muhit-vaziyatni farqlash, tafakkur va h.) shakllantiriladi.

Tayyorgarlik turlarining hajmi taxminan quyidagi nisbatda bo'ladi: Trenirovka mashg'ulotlarida ijro etiladigan mashqlar hajmi biroz kamayadi, shiddati esa tezlashadi.

3. Musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichi - Bu bosqich shug'ullanuvchilarni to'g'ridan-to'g'ri musobaqaga tayyorlash jarayoni bilan ifodalanadi. Tayyorgarlikning barcha turlariga oid mashg'ulotlarda qo'yiladigan vazifalar basketbolchilarni musobaqa

o'yinlariga tayyorlashga yo'naltiriladi. Mashg'ulotlar shiddati maksimal darajaga ko'tariladi, hajmi esa kamayadi.

Ushbu bosqichda o'yinlar hajmi oshadi, jamoa qator tayyorlovchi turnirlarda ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Musobaqa davri - Musobaqa davri (yarim yillik davrda 3-4 oy va yillik tsiklda 7-8 oy) musobaqaga oldidan tayyorgarlik va to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik bosqichlarini o'z ichiga oladi. Mashg'ulotlar yuqori natijalarga erishishga qaratilgan bo'ladi, hamda bu davrda texnik, taktik va psixologikka diqqatni ko'proq qaratish kerak bo'ladi.

Ushbu davrga qo'yiladigan vazifalar quydagilardan iborat:

1. Jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarni rivojlantirish darajasini ko'paytirish;
2. Sport texnikasini takomillashtirish va mustahkamlash;
3. O'yin taktikasi va taktik kombinatsiyalarni yanada rivojlantirish hamda musobaqa tajribasini ko'tarish;
4. Umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini kengaytirish;
5. Nazariy bilimlar darajasini kengaytirish.

Ushbu davrda tayyorgarlikning barcha turlari basketbolchilarni musobaqalarda yuqori natijaga erishishlariga qaratiladi. Jismoniy tayyorgarlik bu davrda sportchilarni musobaqalarga funksional jihatdan tayyorlashga mo'ljallangan bo'lib, maxsus ish qobiliyatini yanada rivojlantirish va saqlash bilan ifodalanadi. Texnik-taktik tayyorgarlik o'yin malakalari va musobaqa faoliyatini mukammallashtirishga, mahorat darajasiga olib chiqish vazifasini hal etishga qaratiladi. Musobaqa mashqlarini qo'llash o'yin vaziyatlarini modellashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunda mashg'ulotlarning shiddati o'ta yuqori tezlikda kechadi. Mazkur davrda o'tkaziladigan musobaqalarni shartli ravishda 3 tabaqaga bo'lish mumkin.

Birinchi tabaqa musobaqalari – o'rtoqlik uchrashuvlari, turli turnirlar (sinov, nazorat, saralov va o'rtoqlik musobaqalari) ni o'z ichiga olishi mumkin.

Ikkinchi tabaqa musobaqalari – bu asosiy ichki – mahalliy chempionatlar va Kubok musobaqalarini qamrab olishi mumkin.

Uchinchi tabaqa musobaqalari – bu asosiy –tashqi musobaqalar (Xalqaro musobaqalar, kubok egalari kubogi, chempionlar kubogi, Osiyo chempionati, Osiyo o'yinlari, Jahon kubogi va chempionati, Olimpiya o'yinlari va h.).

O'tish davri – 1-1, 5 oy davom etadi. O'tish davrining asosiy vazifasi – o'quv-trenirovka va musobaqa jarayonlarining yalpi ta'siri natijasida organizm toliqish, zo'riqish hollariga tushib qolmasligini oldini olish maqsadida faol dam olish tadbirlarini tadbqiq etish, maxsus ixtisoslashtirilgan basketbol mashqlaridan foydalanishni to'xtatib, boshqa sport turlariga oid (kross-engil atletika, suzish, eshkak eshish, turizm va h.) mashqlarni qo'llashdan iborat.

Bundan tashqari, bu davrda musobaqa davridagi mashg'ulotlar shiddatini sekin-asta minimal darajasigacha kamaytirish va ish qobiliyatini tiklashga oid vositalar hajmini kengaytirish zarur bo'ladi. Bu davrni tog'da, daryo, dengiz bo'ylarida, o'rmon sharoitida o'tkazish samarali bo'ladi.

O'tish davrining maqsadi – shug'ullanuvchilarni jismoniy sifatlar va texnikmahoratini rivojlanish darajasini pasaytirmasdan, faol dam olib, sog'lom holda yangi katta sikldagi mashg'ulotlar boshlanishiga olib borish demakdir.

O'tish davrining ikkinchi yarmidan boshlab asta-sekin navbatdagi trenirovka sikliga poydevor yaratilish maqsadga muvofiqdir.

2.4 Sikl turlari va tuzilishi

Mezosikl – bu mikrosikllarga nisbatan yakunlangan qator bo'lib, u 2 haftadan 6 haftagacha davom etadigan o'rtacha mashg'ulot sikli hisoblanadi.

Sport mashg'ulotlarining mezostrukturasi, mezosikl turlari – tortuvchi, asosiy, nazorat-tayyorgarlik, musobaqaoldi, musobaqa,

tiklovchi-tayyorgarlik va tiklovchi-qo'llab-quvvatlovchidir. Ushbu turdagi mezosikllarning barchasi sportchilarning mashg'ulot jarayonida ham sodir bo'lishi mumkin.

Tortuvchi mezosikl mashg'ulot yuklamlari hajmining sezilarli darajada oshishi va intensivlikning asta-sekin oshishi bilan tavsiflanadi. Uning vazifasi sportchilarni maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali bajarishga olib borishdan iborat. Ushbu turdagi mezosikl odatda tayyorgarlik davrini boshlaydi. Malakasi yuqorimas sportchilarda tortuvchi mezosikl 3-4 hajmli mikrosikllardan iborat.

Orqaga tortuvchi mezosiklda, sportchilarning malakasidan qat'iy nazar, nafas olish va qon aylanish tizimlarining imkoniyatlarini oshirish uchun umumiy tayyorgarlik vositalariga ko'proq e'tibor beriladi. Bu sportchining maxsus tayyorgarligi darajasini oshiradigan keyingi ish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun amalga oshiriladi. Ijtimoiy-tayyorgarlik vositalari ham ma'lum hajmda qo'llaniladi.

Asosiy mezosikl – organizmni asosiy tizimini funktsional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarliklarini yaxshilash uchun rejalashtiriladi. Ushbu sikl tayyorgarlik davrini asosini tashkil etadi va ular boshlang'ich davrda jismoniy sifatlar va malakalarni tiklash maqsadida musobaqa davriga kiritiladi.

Asosiy mezosiklning o'ziga xos xususiyati shundaki, u funktsional imkoniyatlarni oshirish, asosiy jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish va allaqachon o'zlashtirilgan texnik va taktik usullarni takomillashtirishga qaratilgan hajmi va intensivligi jihatidan katta bo'lgan asosiy o'quv ishlarini olib boradi.

Sportchilarning funktsional imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, ushbu mezosikllarning vazifalari tanadagi erishilgan o'zgarishlarni barqarorlashtirish va mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy tarkibiga ko'ra, ular umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik bo'lishi mumkin va mashg'ulot dinamikasiga ta'sir qilish

ta'siri bo'yicha rivojlanish va qo'llab-quvvatlash, asosiy mezosiklning har bir turi tegishli turdagi bir nechta mezosikllarni o'z ichiga olishi mumkin, ammo turli kombinasiyalarda bo'lishi mumkin.

Masalan, rivojlanayotgan mezosikl 4 ta mezosikldan iborat bo'lishi ya'ni mumkin-ikkita hajmli, bitta intensiv va kamaytiruvchi Mc volumetrik + Mc volumetrik + Mc intensiv + Mc reduktiv + stabillashuvchi faqat ikkita hajmli mikrosikldan iborat.

Nazorat-tayyorgarlik mezosikllari asosiy mezosikllardan musobaqa mezosikllariga o'tish, yaqin bo'lish shaklidir. Bu mezosikllar musobaqa yoki unga yaqin mashg'ulot yuklamasining yuqri cho'qqisi bilan xarakterlanadi. Ular tayyorgarlik davrining 2 yarmida va musobaqa davrida kuchli boshlanishlar orasidagi oraliq mezosikllar sifatida qo'llaniladi.

Aslida, o'quv ishlari bu erda asosan nazorat va mashg'ulot xarakteriga ega bo'lgan va shu tariqa musobaqaga tayyorgarlik vazifalariga bo'ysunadigan bir qator musobaqalarda ishtirok etish bilan birlashtirilgan. Ushbu turdagi mezosikl ikki yoki uchta haqiqiy o'quv mikrosikllari va bitta raqobatbardosh turdagi mikrosikllardan iborat bo'lishi mumkin.

Musobaqaoldi mezosikllar sportchini mashg'ulot jarayonida aniqlangan ayrim kamchiliklarini bartaraf etish texnik imkoniyatlarini yaxshilash orqali sport formasining yakuniy rivojlantirishga qaratilgan. Bu mezosiklda psixologik va taktik tayyorgarlik alohida o'rin tutadi. Musobaqaoldi mezosikl asosiy musobaqaga yoki asosiy musobaqalardan biriga to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik bosqichiga hosdir. Ular kelgusi musobaqalarning butun tartibini modellashtirishi, uning o'ziga xos sharoitlariga moslashishini ta'minlashi va hal qiluvchi startlarda sportchining imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishi kerak.

Agar musobaqalar sportchi yoki jamoa uchun juda mas'uliyatli bo'lmasa va odatdagi iqlim va geografik sharoitlarda o'tkazilsa, ularga

to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik mezosiklining bir qismi sifatida ta'minlanadi, u etkazib berish, musobaqa va tiklovchi mikrosikllardan iborat bo'lishi mumkin. Sportchi uchun g'ayrioddiy sharoitlarda o'tkaziladigan mas'uliyatli musobaqaga tayyorgarlik ko'rayotganda, odatda musobaqadan oldin tuzilgan bir yoki bir nechta mezosikllarni o'z ichiga olgan mas'uliyatli musobaqaga to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik bosqichini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Qoida tariqasida, musobaqadan oldingi mezosikl model raqobatidan, etakchi va haqiqiy o'quv mikrosikllaridan iborat, 413 turli xil ketma-ketlikda va turli chastotalarda birlashtirilishi mumkin. Masalan, agar kerak bo'lsa, musobaqaga tayyorgarlik fonida yanada puxta o'quv ishlarini olib borishni, samarali varianti: MC model-raqobat, + MC aslida trenerlar, MC aslida trenerlar + MC model-raqobat + MC aslida trenerlar, + Mc etkazib berish.

Musobaqa mezosikllar – bu asosiy musobaqalar davrida mashg'ulotlarni tuzishning odatiy shakli hisoblanadi. Ko'p yillik sport turlarida musobaqalar besh-o'n oy davomida o'tkaziladi. Bu vaqt bir nechta mezosikllar otkazilishi mumkin bo'ladi. Musobaqa mezosikllarning soni va tuzilishi mavjud sport taqvimining xususiyatlarini, dasturini, musobaqa tartibini, ishtirokchilar tarkibini, sportchilarning malakasi va tayyorgarlik darajasi bilan bog'liqligi belgilanadi. Hech bo'lmaganda har bir musobaqa mezosikl past, musobaqa va kamaytiruvchi mikrosikllardan iborat.

Kamaytiruvchi mezosikllar tiklovchi-tayyorlovchi va tiklovchi-qo'llab-quvvatlovchi mezosikllarga bo'linadi. Birinchisi, ikkita musobaqa mezosikl o'rtasida rejalashtirilgan. Ular bir yoki ikkita tiklovchi, ikki yoki uchta haqiqiy o'quv mikrosikllaridan iborat. Ularning asosiy vazifasi sportchilarni bir qator asosiy musobaqalardan so'ng organizmini tiklash, bu esa jismoniy, asabiy harajatlarni talab qilmaydi, shuningdek, yangi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishdir.

Makrosikl – bu sport formasini shakllantirish, barqarorlashtirish va vaqtinchaga yo‘qotish bilan bog‘liq yarim yillik, yillik, ko‘p yillik katta mashg‘ulot sikli, yakuniy davrlar, bosqichlar mezosikllarni o‘z ichiga oladi. Har bir makrosiklda 3 ta davr – tayyorgarlik, musobaqa va o‘tish davri mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak tayyorgarlikka ega sportchilarni ko‘p yillik muddatga tayyorlash va rivojlantirish murakkab jarayondir. U ketma-ket katta bosqichlarni, ya‘ni sportchilarning yosh va malaka ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq ko‘p yilliligi tayyorgarlikning tanlash bosqichlarini navbatma-navbat almashtirish shaklida taqdim etilishi mumkin.

Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot jarayonining ustuvor yo‘nalishi jismoniy sifatlar rivojlanishini davrlarini, mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tuzish omillarini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tayanch iboralar: Sport trenirovkasining uslublari, vositalari, mezosikllar, tortuvchi, tiklovchi mezosikllar, makrosikllar, musobaqa va o‘tish davrlari,

Mustaqil ta‘lim uchun savollar

1. Sport renirovkasining maqsadi, vazifalari va mazmuni aytib bering.
2. Sport trenirovkasining uslublari, vositalar aytib bering.
3. Tayyorgar bosqichlari haqida so‘zlab bering.
4. Bir yillik o‘quv siklida necha davr bor? Davr vazifalarini gapirib bering.
5. Sport mashg‘ulotlari sikllarining turlarini sanang va tuzilishi haqida aytib bering?
6. Sport mashg‘ulotlarining mezosikl turlarini sanab o‘ting.
7. Sport mashg‘ulotlarining asosiy mezosiklining vazifalarini oching bering.

8. Musobaqadan oldingi nazorat-tayyorgarlik va musobaqa mezosikllari bu qanday sikllar?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ganieva F.V. Sport pedagogik mahoratini oshirish (basketbol). // O'quv qo'llanma. T.: 2023. – 267 b.

2. Miradilov B.M. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Shafoat Nur Fayz". 2021. – 456 b.

3. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: 4-е изд., испр. и. доп. / Л.П. Матвеев. - Санкт-Петербург: «Лань». 2005. - 384 с.

4. Платонов В.Н.. Периодизация спортивной тренировки. Общая теория и её практическое применение / - К: Олимп.Лит.. 2013.-624с

5. Спортивные игры: Техника, тактика методика обучения // Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведен. под. ред. Ю.Д. Желязника Ю.М. Портнова. М.: Академия. 2004. - 520 с.

6. Сахарова М.В. Проектирование макроциклов подготовки в игровых видах спорта: значение, сущность, технология. – М.: Спутник. 2005. – 309 с

7. Филин В.П. Спортивная подготовка как многолетний процесс. // В сб.: Современная система спортивной подготовки. М.: САМ. 1995. С. 351-389 с.

8. Фискалов В.Д. Спорт и система подготовки спортсменов: учебник / В.Д. Фискалов. – М.: Советский спорт. 2010 – 329 с.

III BOB. “BASKETBOLCHILARNI TAYYORLASH JARAYONINI REJALASHTIRISH VA TURLI TAYYORGARLIK SIKLLARIDA MASHG‘ULOTLAR O‘TKAZISH XUSUSIYATLARI” MAVZUSINING MAQSADLARI, VAZIFALARI VA MAZMUNI

3.1. Rejalashtirish va tayyorlash jarayoni

Sport tayyorgarligi jarayonini rejalashtirish texnologiyasi – bu aniq vazifalarni belgilovchi uslubiy, tashkiliy ko‘rsatmalar, vositalar, usullar, shakllar, moddiy-texnik ta‘minot va mashg‘ulot xujjatlarini tayyorlash tartibidir. Boshqaruv jarayoninig fundamental asosi rejalashtirishdir. U nafaqat butun tayyorgarlik jarayonining mazmunini, balki murabbiyning ish faoliyatini ham tartibga soladi. Rejalashtirish – bu kelajakni ko‘ra bilish va uni oldindan aytib, bashorat qilishni bilish demakdir. Basketbolchilar va basketbol jamoalari faoliyatini rejalashtirish, o‘rgatish va trenirovka mashg‘ulotlari qonuniyatlari, prinsiplari, uslub va vositalarini qo‘llash texnologiyasiga asoslanishi lozim.

Basketbol – bu jamoa o‘yini, shuning uchun rejalashtirish ham jamoa uchun ham o‘yinchi uchun tuziladi. Basketbol ham boshqa jamoali sport o‘yinlari turlariga o‘xshab qarshi jamoa bilan kurashda nafaqat shaxsiy, balki jamoa o‘yinlarining birgalikdagi harakatini mukammallashtirish xususiyati bilan ifodalanadi. Shu sababli texnik, taktik va o‘yin tayyorgarligini maqsadli shakllantirish o‘ta muhim shartlardan biridir. Tayyorgarlik turlariga ajratiladigan vaqt taxminan quyidagicha taqsimlanadi: jismoniy tayyorgarlik- 20%, texnik- 30%, taktik, o‘yin va musobaqa tayyorgarligi -50%, bu raqamlar o‘yinchilarning yoshi, malakasi va tayyorgarlik darajasi, moddiy-texnik bazaning shart-sharoitlari va jamoa oldida turgan asosiy vazifalar e‘tiborga olinadi.

Ishlab chiqilgan rejalarga o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayonlarida qayd etiladigan real ko'rsatkichlar, kuzatuv hamda ilmiy-tadqiqot natijalar asosida maqsadli o'zgartirishlar yoki qo'shimcha tadbirlar kiritilishi darkor.

Har bir o'yinchi va jamoaga alohida istiqbol rejasi (4 yilga) yillik reja mezo va mikrotsikllar rejalari (joriy reja tezkor reja) tuzilishi lozim.

Rejalashtirilgan mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini o'zlashtirish samaradorligini ob'ektiv va asosli baholash uchun tayyorgarlik turlari bo'yicha erishilgan imkoniyatlar, me'yoriy testlar asosida nazoratdan o'tkazilib turilishi kerak.

Rejalashtirish turlari. Ko'p yillik sport trenirovkasi uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib u turli davr va bosqichlarga mo'ljallangan o'ziga xos maqsadli rejalashtiruv hujjatlari asosida boshqariladi.

Yuqorida qayd etilganidek ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini maqsadli boshqarish avvalom bor 4 yilga mo'ljallangan strategik hujjat – istiqbol rejasi asosida amalga oshiriladi.

Istiqbol rejasi – bu jamoa va o'yinchilar sport mahoratini takomillashtirishga qaratilgan strategik dastur bo'lib unda yillik tayyorgarlik siklining turli davr va bosqichlari uchun belgilangan aniq maqsad va vazifalar hal etiladi.

Jamoaning na'munaviy istiqbol rejasi quyidagi tartibda tuzilishi mumkin:

1. Tayyorgarlikning maqsadi. Bunda asosiy musobaqalarda erishiladigan pirovard sport natijasi va mashg'ulot jarayoninig ustuvor yo'nalishlari loyihalashtiriladi.

2. Jamoa tarkibi va zahira tarkibini tayyorlash. Ushbu yo'nalish bo'yicha jamoaning imkoniyati jamoa tarkibini aniqlash va zahira basketbolchilarni tayyorlash vazifalari hal etiladi.

3. Musobaqalarda ishtirok etish. Bunda musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan vazifalar amalga oshiriladi. Asosiy va

oralik musobaqalarga tayyorlovchi modellashtirilgan mashg'ulotlar tashkil qilinadi hamda ularda erishiladigan natijalar bashorat qilinadi.

4. **Mashg'ulot yuklamalari.** Mazkur yo'nalish bo'yicha aniq holat aniqlanadi va vazifalar qo'yiladi tayyorgarlik yillari bo'yicha mashg'ulotlar yuklamalarining hajmi rejalashtiriladi.

5. **Tayyorgarlikning davriyligi.** Yillik tayyorgarlik sikli va tuzilishi bo'yicha vazifalar rejalashtiriladi. Tayyorgarlik davrlari bosqichlari ularning muddati va mazmuni belgilanadi.

6. **Tayyorgarlik vositalari va darajasi.** Vazifalar va har xil tayyorgarlik turlari bo'yicha mashg'ulotlar yo'nalishi rejalashtiriladi.

7. **Hisobot pedagogik va tibbiy nazorat.** Nazorat sinovlari tibbiy ko'rik va boshqa barcha nazorat muddatlari belgilanadi.

Jamoa istiqbol rejasining shakli 5-jadvalda berilgan.

5-jadval

Jamoa istiqbol rejasining shakli

T/r	Tayyorgarlik turlari	Dastlabki ko'rsatkichlar 2021-y.	Rejadagi va amaldagi ko'rsatkichlar				Izohlar
			2021	2022	2023	2024	
			Reja Amal	Reja Amal	Reja Amal	Reja Amal	
1.	UJT: me'yoriy talablar bo'yicha						
2.	MJT: me'yoriy talablar bo'yicha						
3.	Texnik tayyorgarlik me'yoriy talablar bo'yicha						

T/r	Tayyorgarlik turlari	Dastlabki ko'rsatkichlar 2021-y.	Rejadagi va amaldagi ko'rsatkichlar				Izohlar
			2021	2022	2023	2024	
			Reja Amal	Reja Amal	Reja Amal	Reja Amal	
4.	Yillik mashg'ulotlar hajmi						
5.	Musobaqalarda ishtirok etish soni va samaradorligi						

Individual istiqbol reja quyidagi tartibda ishlab chiqilishi mumkin:

1. Sportchining umumiy va antropometrik ko'rsatkichlari.
2. Sportchining barcha yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlari rejalashtiriladi: jamoadagi o'yin funksiyasi jismoniy sifatlar texnik taktik nazariy psixofunksional tayyorgarlik dinamikasi loyihalashtiriladi.
3. Tayyorgarlikning maqsadi va vazifalari:
 - asosiy maqsad va tayyorgarlik yo'nalishi;
 - mashg'ulotlar hajmi bo'yicha vazifalar;
 - tayyorgarlik turlari bo'yicha vazifalar;
 - musobaqalarda ishtirok etish bo'yicha vazifalar;
4. Pedagogik va tibbiy nazorat natijalari: testlarni topshirish muddatlari belgilanadi.
5. Yilga tayyorgarlik turlari bo'yicha ko'rsatkichlar rejalashtiriladi.

Yillik rejalashtiruv hujjati. Yillik rejalashtiruv istiqbol rejasining asosiy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbu hujjatda rejalashtiriladigan tadbirlar tayyorgarlik davrlari va bosqichlari

ularning maqsadi mohiyati, muddati, hamda yo'nalishiga muvofiq loyihalashtiriladi.

Yillik tayyorgarlik 3 davrga – tayyorlov musobaqa va o'tish davrlariga bo'linadi.

3.2. Yil davomida o'quv jarayonini tuzish

Musobaqa va boshqa davrlarning tuzilishiga davomiyligiga sport musobaqalari taqvimini ta'sir qiladi. Yillik mashg'ulot siklining tuzilishini belgilovchi asosiy omil sport formasini rivojlantirishning ob'ektiv qonuniyatidir.


Sport shakli holatining rivojlanish jarayoni fazaviy xususiyatga ega.

U uch fazaning ketma-ket o'zgarishi tartibida davom etadi:

- 1) egallashsh;
- 2) nisbiy barqarorlashuv;
- 3) sport formasini vaqtincha yo'qotish.

Sport shaklining rivojlanish bosqichlari mashg'ulotlarni davrlashtirish uchun asos bo'lib ulardagi mashg'ulot jarayonining davomiyligini tarkibini va mazmunini belgilaydi. Sport shakli holatining rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq sportchilarning yillik sikli uch davrga bo'linadi: tayyorlov, musobaqa va o'tish davri (6- jadval).

Mashg'ulot jarayonini davrlashtirish



Tayyorlov davri – sport formasini egallash bosqichiga to‘g‘ri keladi va ikki bosqichga bo‘linadi: umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik. Boshlang‘ich sportchilar uchun umumiy tayyorgarlik davri uzoqroq. Sportchilarning sport malakasi oshishi bilan maxsus tayyorgarlik bosqichining davomiyligi oshadi.

Tayyorgarlik davrining birinchi bosqichining asosiy yo‘nalishi sport formasini egallash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va rivojlantirishdir. Asosiy shart - bu tananing funksional imkoniyatlarining umumiy darajasini oshirish jismoniy fazilatlarini (kuch tezlik chidamlilik va boshqalar) (diversifikatsiya) qilish, shuningdek vosita ko‘nikmalari va qobiliyatlari hajmini oshirish. Umumiy tayyorgarlik bosqichida o‘quv yuklamaning hajmi va intensivligi asta-sekin o‘sib boradi va yuklamaning intensivligi faqat katta hajndagi ishlarga halaqit bermaydigan va sportchilarning sog‘lig‘iga ta‘sir qilmaydigan darajada o‘sadi;

Maxsus tayyorgarlik bosqichining asosiy yo‘nalishi sport formasini bevosita rivojlantirishdir: bu yerda sportchilarni tayyorlashning turli jihatlari mazmuni o‘zgaradi. ular endilikda maxsus

jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish tanlangan sport turi bo'yicha texnik-taktik ko'nikmalarni egallash va takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, maxsus psixologik tayyorgarlikning ro'li, maxsus tayyorgarlik ulushi ortib bormoqda.

Maxsus tayyorgarlik mashqlaridan tashqari, cheklangan darajada bo'lsada sportchilarni tayyorlashda musobaqa mashqlari ham qo'llanila boshlandi. Yuklamaning hajmi asta-sekin lekin doimiy ravishda oshib boradi va musobaqa davrining boshida maksimal darajaga etadi. Shu bilan birga, yuklamaning intensivligi garchi u musobaqa davrining boshiga qarab asta-sekin ortib borsa ham nisbatan kichikdir. O'quv jarayonini yanada samarali rejalashtirish va boshqarish uchun yillik siklning tayyorgarlik davri turli turdagi mezosikllarga bo'linadi.

Ularning mazmuni va davomiyligi quyidagilarga bog'liq:

1) tayyorgarlik davrlarining va sport-ommaviy tadbirlari taqvimini umumiy davomiyligi;

2) sport turi;

3) sportchilarning yoshi malakasi tajribasi;

4) mashg'ulot sharoitlari va boshqa omillar.

Musobaqa davrida mashg'ulotlarning asosiy maqsadi sport formasini saqlab qolish va shu asosda maksimal natijalarga erishish uchun uni amalga oshirishdir. Ushbu davrda tanlangan sport turi bo'yicha maxsus ko'rsatkichlarni oshirishga qaratilgan musobaqaviy va maxsus tayyorgarlik mashqlari qo'llaniladi. Musobaqa davrida umumiy o'quv vositalarining ulushi maxsus tayyorgarlik bosqichidan past bo'lmazligi kerak.

Umumiy tarbiya vositalari yordamida turli jismoniy qobiliyatlar harakat qobiliyatlari va ko'nikmalarini zarur darajada rivojlantirish va saqlash ta'minlanadi. Sportchilar o'rtasida musobaqa davridagi maxsus va umumiy tayyorgarlik vositalari o'rtasidagi nisbat ularning yoshi va sport malakasiga bog'liq. Bu davrda sport mashg'ulotlarining eng ko'p mehnat talab qiladigan usullari qo'llaniladi.

Musobaqalarning soni sport turining xususiyatlariga musobaqa davrining tuzilishiga sportchilarning yoshiga va malakasiga bog'liq. Musobaqalarning chastotasi va umumiy sonidan foydalanib ushbu davrda sport natijalarining o'sishini nazorat qilishingiz mumkin. Biroq ularning optimal soni har bir sportchi uchun alohida belgilanishi kerak. Shaxsiy musobaqalar orasidagi dam olish oraliq'i sportchilarning ko'rsatkichlarini tiklash va rivojlantirish uchun etarli bo'lishi kerak. Musobaqa davridagi o'quv yuklamalari dinamikasining xususiyatlari uning tuzilishi bilan belgilanadi.

Musobaqa davrining tuzilishi musobaqalar taqvimiga uning dasturi va rejimiga ishtirokchilar tarkibiga va mashg'ulotlarning umumiy tizimiga bog'liq. Agar musobaqa davri qisqa muddatli (1-2 oy) bo'lsa u odatda butunlay bir nechta musobaqa mezosikllardan iborat bo'ladi. Bunday holatda mashg'ulot yuklamasining hajmi asta-sekin kamayadi va ma'lum darajada barqarorlashadi va musobaqaning qizg'in davri birmuncha oshadi. Musobaqa davrining uzoqroq davom etishi, (3-4 oy va undan ko'p) bu asosan malakali sportchilar uchun xos bo'lgan, u musobaqa davrlar bilan bir qatorda oraliq mezosikllarni (tiklash-qo'llab-quvvatlovchi, tiklovchi-tayyorgarlik) o'z ichiga oladi. Yuklama kamayadi, vositalar va usullar o'zgaradi va ta'lim sharoitlari sportchining tayyorgarlik darajasini doimiy ravishda oshirish uchun sharoit yaratadi.

O'tish davri. Bu davrning asosiy vazifasi faol dam olish va shu bilan birga ma'lum darajadagi sport ko'rsatkichlarini saqlab qolishdir. O'tish davridagi mashg'ulotlarning asosiy mazmuni faol dam olish tartibida umumiy jismoniy tayyorgarlikdir. Xuddi shu turdagi va monotonli yuklamalardan qochish kerak, chunki ular to'g'ri faol dam olishga halaqit qiladi. Faol dam olish jismoniy faollikning o'zgarishi va atrof-muhitning o'zgarishi (mashq qilish joylari, sport anjomlari, jihozlari va boshqalar) orqali tashkil etiladi. U birinchi navbatda sportchilarning tez va to'liq tiklanishi uchun ishlatiladi.

O'tish davrida o'quv yuklamalarining umumiy hajmi va intensivligi pasayadi, lekin haddan tashqari pasayishiga yo'l qo'ymaslik kerak. O'tish davrining muhim vazifasi o'tgan yildagi ishlarni tahlil qilish, kelgusi yil uchun o'quv rejasini tuzish, jarohatlarni davolashdan iborat. Agar sportchi muntazam ravishda mashq qilmasa, etarli yuklamalari bo'lmasa yoki kam shug'ullansa, o'tish davriga ehtiyoj qolmaydi. Yiliga bitta tayyorgarlik, tanlov va o'tish davri mavjud bo'lgan o'quv tuzilmasi bir davrli deb ataladi.

Sport amaliyoti shuni ko'rsatadiki, u yangi shug'ullanuvchilar va yuqori malakali sportchilar bilan chidamlilikni talab qiladigan siklik sport turlarida samarali bo'ladi, ular chang'i uchish, konkida uchish, eshkak eshish va boshqalar. Suzish, yengil atletika, sport o'yinlari va boshqa sport turlarida malakali sportchilar yiliga bir necha marta yirik musobaqalarda qatnashishi kerak. Bunday hollarda o'quv yili ikki, uch yoki undan ortiq sikldan iborat bo'lishi mumkin. Yil bo'yi o'qitishning ko'p siklli tuzilishi o'quv yili bir necha davrlarga bo'linganligi, ularning har biri o'ziga xos tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlariga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Agar ikkita katta olti oylik sikl birinchi navbatda birlashtirilsa va o'tish davri birinchisidan chiqarib tashlansa, siz "ikki" ta'lim siklini olinadi. Birinchi yarim sikl ikki davrdan iborat (tayyorlov va musobaqa), ikkinchisi - uchtdan (tayyorlov, musobaqa va o'tish davri), ya'ni o'quv yili sport formasining besh bosqichli rivojlanish egri chizig'i bilan tavsiflanadi. O'quv yilining uch davrli tuzilishi turli tuzilish va mazmundagi uchta yirik sikldan iborat bo'lib, sport ko'rsatkichlarining etti bosqichli rivojlanish egri chizig'i bilan tavsiflanadi.

Yillik tayyorgarlik va musobaqalar mavsumi yakunlanganidan to yangi mavsum – yangi tayyorgarlik sikli boshlangunga qadar davom etadi. O'yin davrida maxsus – ixtisoslashtirilgan yuklamalar hajmi imkoni boricha kamaytiriladi.

Bu davr shartli ravishda 3 bosqichga bo'linishi maqsadga muvofiq. Masalan: agar o'tish davri 30 kunni tashkil etsa, birinchi 10 kun davomida ixtisoslashtirilgan yuklamalar hajmi va shiddati sekin-asta kamaytirilishi lozim, Ikkinchi 10 kunlikda ish qobiliyatini tiklovchi, sog'lomlashtiruvchi va chiniqtiruvchi vositalardan (boshqa sport turlariga xos mashqlar) foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchi 10 kun davomida asta-sekin ish qobiliyatini faollashtiruvchi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Umuman o'tish davrida asosiy e'tibor funksional imkoniyatlarni oshirish va bioenergetik resurslar zahirasini jamlashga qaratilishi darkor.

Yillik rejalashtiruv hujjatlari asosida, tezkor rejalashtiruv hujjatlari ishlab chiqilishi zarur: ishchi reja, mashg'ulot bayonnomasi va mashg'ulot jadvali.

Ushbu tezkor rejalashtiruv hujjatlari yillik rejada loyihalashtirilgan barcha jarayonlarni yanada aniqlashtiradi va aksariyat hollarda joriy nazorat natijalariga ko'ra mashg'ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni takrorlanishi va yo'nalishiga qisman yoki to'liq o'zgartirishlar, qo'shimcha rejalarni kiritish mumkin.

Yillik tayyorgarlik siklining yillik rejasida 4 yilga tuzilgan istiqbol rejasidan joy olgan barcha ko'rsatkichlar yanada aniqlashtiriladi.

Jamoa tayyorgarligini rejalashtirish uchun odatda o'quv rejasi, dasturi va o'quv mashg'ulot materiallarini o'zlashtirish jadvali tuziladi. Ushbu hujjatlarda aks ettiriladigan mashg'ulot yuklamasi, shiddati, yo'nalishi, takrorlanishi ham turli nazorat va rasmiy musobaqalar (nazorat, Sinov, kubok musobaqalari, chempionatlar va h) yillik tayyorgarlik siklining barcha davrlari va bosqichlarida qo'yiladigan talablar doirasida rejalashtiriladi.

Dasturda quyidagilar e'tiborga olinishi darkor:

1. Nazariy tayyorgarlik: shug'ullanuvchilarning taktik tayyorgarligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar darajasi (hajmi);

2. Shug'ullanuvchilar erishadigan jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va texnik mahorat (me'zoriy talablar bo'yicha);

3. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni va yo'nalishi;

4. Tayyorgarlik turlari bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar mazmuni va yo'nalishi.

Dasturda har bir bosqich va davrlarga hamda musobaqaoldi tayyorgarlik sikllari bo'yicha qo'yiladigan maqsad va vazifalar o'zining aniq ifodasini topishi lozim.

3.3. Sportchilarni tayyorlash uzoq muddatli uzluksiz jarayon sifatida

"Sportchilarni tayyorlash" tushunchasi eng yuqoriga erishgan sport turlari va sport zaxiralarini tayyorlash uchun xosdir. Bu musobaqalarga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rish va musobaqada qarama-qarshilik paytida sportchining mavjud imkoniyatlarini maksimal darajada amalga oshirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmuidir. "Sportdagi hayot" ning butun davri (odatda 10-20 yil) musobaqalarda ishtirok etishning takroriy almashinuvi va ular uchun maxsus tayyorgarlik bilan tavsiflanadi.

Sportchilarni tayyorlash ixtisoslashtirilgan sport mashg'ulotlari boshlanishidan yuqori yutuqlar sport sohasiga o'tishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi (turli sport turlarida 5 yildan 10 yilgacha). Sportning eng yuqori yutuqlarida sportchi sport turiga qarab 4 yoshdan 10 yoshgacha. Sport mashg'ulotlarining ko'p yillik davri, bir tomondan, o'quvchilarning yoshi bilan, ikkinchi tomondan, sportning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan bosqichlarga bo'linadi, masalan, sport o'yinlarida ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini keltirish mumkin.

Birinchi bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi: sportga qiziqishni tarbiyalash, bolalarni sport o'yinlari bilan tanishtirish,

texnika va taktika, o'yin qoidalariga dastlabki tayyorgarlik, umumiy jismoniy fazilatlarini tarbiyalash va o'yinning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, yakka va birgalikda o'yinning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, (mini-basketbol, mini-voleybol va xokazolar) Ularning yoshi 11 yoshgacha bo'lishi kerak.

Birinchi bosqichning asosiy vazifalari salomatlikni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik mashqlarida texnikani o'rgatishdir. UJT hajmi 80%, MJT 20%, Haftalik sikl - 2-3 mashg'ulot, yillik hajm yiliga 100 dan 200 soatgacha.

Ikkinchi bosqich asosiy texnik, taktik va jismoniy tayyorgarlikka bag'ishlangan. Bu vaqtda o'yin texnikasi va taktikasi asoslari shakllanadi, lekin o'yin funktsiyalariga ixtisoslashuvga sport o'yinlariga nisbatan musobaqa sifatlarni rivojlantirishga e'tibor bermasdan shakllanadi, ularning yoshi 12-14 yoshgacha bo'lishi kerak.

Asosiy maqsadlar - salomatlikni mustahkamlash, tanlangan sport turi bo'yicha vosita ko'nikmalarini rivojlantirish va ushbu sport turiga barqaror qiziqishni shakllantirish. UJT hajmi 60%, MJT 40%, Darslar haftasiga 3-5 marta, Yillik yuklama yiliga 200 dan 600 soatgacha.

Uchinchi bosqich maxsus tayyorgarlikka qaratilgan bo'lib, o'yin funktsiyalari uchun texnik-taktik, jismoniy, o'yin, musobaqa, ixtisoslashuv elementlari kiritiladi, yoshi 15-17 yoshgacha bo'lishi kerak.

